

3407
JULY

Mirjamolov M.X. Bobomurodov N.Sh. Sobirova L.B.

ADAPTIV SPORTDA INTEGRAL TAYYORGARLIK MAGISTRALAR UCHUN

O'QUV QOLGANMA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA
SPORT UNIVERSITETI

ADAPTIV JISMONIY TARBIYA VA SPORT KAFEDRASI

Mirjamolov M.X., Bobomurodov N.Sh., Sobirova L.B.


ADAPTIV SPORTDA INTEGRAL TAYYORGARLIK

(Magistrlar uchun)

71010303-“Adaptiv sogolomlashtirish
jismoniy tarbiya va sport”

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT
“MAKON SAVDO PRINT”
2023



UO'K: 457.133.54

KBK: 125(o'zb)65

Tuzuvchilar:

M.X. Mijamolov – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport kafedrasini mudiri p.f.b.f.d. (PhD) dotsent

N.Sh. Bobomurodov – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport kafedrasini v.b. dotsent p.f.b.f.d.(PhD)

L.B. Sobirova – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport kafedrasini v.b. dotsent p.f.b.f.d.(PhD)

Taqrizchilar:

Shahridinova L.N. – Navoyi davlat pedagogika institutine “Jismoniy madaniyat” fakulteti “Sport turlarini o’qitish metodikasi” kafedrasini dotsent p.f.b.f.d.(PhD)

Xolmurodov L.Z – “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasini dotsent. p.f.b.f.d.(PhD)

Mazkur o’quv qo’llanma oliv o’quv yurtlarining “Sport faoliyati” magistratura yo’nalishi, “Adaptiv sportda integral tayyorgarlik” fani o’quv dasturi asosida yaratilgan. Ushbu o’quv qo’llanmada adaptiv jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlariga oid masalalar ochib berilgan bo’lib, bunda ko’p yillik tayyorgarlik bosqichlarida tayyorgarlik turlarini rivojlantirish, adaptiv jismoniy tarbiya mashg’ulotlari, mashg’ulotlarni rejalashtirish va nazorat qilish masalalari keng yoritilgan.

Annotatsiya

Ushbu o‘quv qo‘llanma Adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyati haqida bolib, amaliy tavsiyalar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. O‘quv qo‘llanma adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariyasining maqsad va vazifalari, mashg‘ulot vositalarini saralash va qo‘llash, adaptiv sportdag‘ integral tayyorgarlik xususiyatlari ochib berilgan. Shug‘illanuvchilarining rivojlanish xususiyatlari, ta’lim va tarbiyaning asoslari, jismoniy tarbiya mashqlariga o‘rgatish, sportchilarni saralash, sportchilarni Respublika va xalqaro musobaqalarga tayyorlash, mashg‘ulot sikllarini tashkil qilish, ko‘p yillik tayyorgarlik sikllar, davrlarni rejalashtirish va nazorat qilish kabi masalalar yoritilgan.

Аннотация

Данное учебное пособие посвящено теории и методике адаптивной физической культуры и спорта и состоит из практических рекомендаций, выводов и использованной литературы. В учебном пособии описаны цели и задачи теории адаптивной физической культуры и спорта, выбор и использование средств тренировки, особенности комплексной подготовки в адаптивных видах спорта. Такие вопросы, как особенности развития, и основы воспитания и обучения, подготовка по физической культуре, отбор спортсменов, подготовка спортсменов к национальным и международным соревнованиям, организация тренировочных циклов, многолетних тренировочных циклов, планирование и контроль периодов подготовки.

Annotation

This manual is about the theory and methodology of adaptive physical education and sports, and consists of practical recommendations, conclusions, and used literature. The study guide describes the goals and objectives of adaptive physical education and sports theory, the selection and use of training tools, and the features of integrated training in adaptive sports. Issues such as the characteristics of the development of the employees, the basics of education and training, training in physical training, selection of athletes, preparation of athletes for national and international competitions, organization of training cycles, multi-year training cycles, planning and control of periods are covered.

KIRISH

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommoviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda bolalarni jismoniy tarbiyalashning ilmiy asoslangan zamonaviy tizimlari, shakl va uslublari joriy etilgan bo‘lib, bu sohada muxim vazifalar belgilangan. Ana shunday vazifalarni amalga oshirish uchun boshqa sohalar qatori maxsus jismoniy tarbiya sohasida ham adabiyotlar yaratilishi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘quv qo‘llanma adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariyasining maqsad va vazifalari ochib beriladi, mashg‘ulot vositalari saralash va qo‘llashni metodologik yo‘llari ochib berilgan. Shug‘illanuvchilarning rivojlanish xususiyatlari, ta’lim va tarbiyaning asoslari, jismoniy tarbiya mashqlariga o‘rgatish, sportchilarni saralash, sportchilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash, mashg‘ulot sikllarini tashkil qilish, ko‘p yillik tayyorgarlik sikllar, davrlar rejalashtirish va nazorat qilish kabi masalalar yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ijtimoiy hayotga tobora chuqurroq kirib bormoqda. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilab berilganidek, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va hozirgi kunda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan kadrlarni qayta tayyorlashdan o‘tkazish kabi dolzarb vazifalar o‘z yechimini topmoqda. Shu jumladan, Prezidentimiz Respublikada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratmoqda.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy rivojlanishda jismoniy tayyorgarligida va salomatlik darajasida sezirarli salbiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligi munosabati bilan sog‘lom, jismoniy jixatdan sog‘ligi mustaxkam yoshlarni tayyorlash muammosi alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

I-BOB ADAPTIV JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.

1.1. Adaptiv jismoniy tarbiya va sportning nazariy-amaliy asoslari.

Ta’lim jarayonida talabaning kasbiy hamda individual rivojlanishi jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv sifatida ixtisoslik fanlarini intellektual tizimlar asosida o‘qitishning maqsadi, tarkibi va qo‘llash texnologiyalarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzARB muamolaridan biri hisoblanadi.

O‘qitishning intellektual tizimi sun’iy intellekt metodlari va vositalarining avtomatlashtirilgan o‘qitish sohasida qo‘llanishining amaliy natijasi bo‘lib, ta’lim tizimlarining yangi avlodni hisoblanadi. Ta’lim jarayonida talabaning bilim ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning yuqori ko‘rsatkichlariga erishish uchun, ixtisoslik fanlari o‘qituvchisi uch asosiy tipdagi bilimlardan foydalanganadi: o‘qitilayotgan ixtisoslik fani bo‘yicha bilimlar, o‘qitish metodlari to‘g‘risidagi bilimlar vata’lim oluvchi haqidagi bilimlar. O‘qitishning an’anaviy avtomatlashtirilgan tizimlarida bu bilimlarning ko‘pgina qismlari tanlangan o‘qitish metodikasiga mos ravishda o‘quv fanining alohida bo‘limlariga qat’iy ravishda kiritilgan. O‘qitishning intellektual tizimida zarur bo‘lgan bilimlar ajratib olinadi va sun’iy intellektning turli metodlari va texnologiyalaridan foydalangan holda ko‘rsatiladi. O‘qitishning intellektual tizimida o‘quv materialini taqdim etishda, bu bilimlardan foydalanimi va talabaning psixofiziologik va intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, eng samarali o‘qitish metodlari, usullari va sur’attalarini, fanning mazmuni, hajmi va topshiriqlarning murakkablik darajasini aniqlash va tartibga solish mumkin bo‘ladi.

Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning intellektual tizimi bilimlar bazasi, boshqarish tizimchasi, o‘qitish tizimchasi va muloqot tizimchasidan iborat. Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning intellektual tizimining asosi bo‘lib bilimlar bazasi hisoblanadi. Har bir ixtisoslik fani bo‘yicha bilimlar bazasi o‘znavbatida, o‘zarobog‘langan bir necha ma’lumotlar bazasidan iborat bo‘ladi va har biri o‘qitilayotgan fanning ma’lum bir qismlarini tashkil etadi: «Atamalar va asosiy tushunchalar»,

«Nazariya», «Amaliy-laboratoriya ishlari», «Mustaqil ishlar».

O‘qitish metodlari haqidagi bilimlar «Topshiriqlar» ma’lumotlar bazasida yig‘ilib boriladi, bu bazada o‘quv fanining barcha bo‘limlari bo‘yicha didaktik materiallar tasniflangan va tartibli tarzda, o‘qitish metodlariga mos ravishda namoyon bo‘ladi. Ta’lim oluvchi haqidagi bilimlar «O‘qitish natijalari» ma’lumotlar bazasida yig‘iladi. Bunda har bir talabaning individual kartasi tuzilib, unda o‘qitilayotgan fan bo‘yicha talaba ega bo‘lgan bilimlar darajasi va sifati haqida, uning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar aks ettiriladi.

Bilimlar bazasini boshqarish tizimchasi yangi bilimlarni kiritish va to‘plash uchun mo‘ljallangan. Birinchi bosqich tizimni o‘rganishdan iborat bo‘ladi, ixtisoslik fani bo‘yicha barcha bilimlar yangi hisoblanadi va bu bilimlarni yig‘ish tizim va ekspert o‘rtasidagi muloqot (dialog) jarayonida amalga oshiriladi. Keyingi bosqichlarda yangi bilimlarni izlash avtomatik tarzda amalga oshiriladi: barcha qabul qilinayotgan axborotlar mavjud bo‘lgan axborotlar bilan solishtiriladi, mavjud bo‘lgan bilimlarga tayangan holda yangi axborotlar saralanadi, tahlil qilinadi va ularning tasnifi bir yoki bir necha variantda taqdim etiladi. Masalan, biror buyumga ishlov berishning yangi usuli topilganda, uni bajarish yo‘llari, kerak bo‘ladigan asbob-uskunalar va moslamalar, foydalaniladigan materiallar, qo‘llaniladigan sohalar haqidagi ma’lumotlar o‘rganish uchun taqdim etiladi.

O‘qitish tizimchasi aniq maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan hamda bu tizimcha uch moduldan iborat bo‘ladi: o‘qitishni boshqarish, topshiriqlarni shakllantirish, natijalarini tahlil qilish. O‘qitishning har bir bosqichida, talabaning individual kartasini tahlil qilish natijalariga asoslangan holda o‘qitishning maqsadi aniqlanadi, o‘qitish vazifalari tanlanadi yoki ishlab chiqiladi. Agar talaba mustaqil ravishda ishlaydigan bo‘lsa, uning harakatlari kuzatilib, xatoliklari, duch kelgan qiyinchiliklari qayd qilib boriladi, qachon o‘quv jarayoniga aralashish, yordam ko‘rsatish, talabaning individual kartasiga o‘zgartirishlar kiritish lozimligi aniqlanadi. Yordam talab qilinganda, uni ko‘rsatishning optimal shakllari tanlanadi (xatoni ko‘rsatish, talabaning o‘zi xatolarini tuzatishi yoki bilmaganlarini

to‘ldirishi uchun informatsion materiallar taklif etish va h.k.). Barcha qarorlar talabaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinishi bois, intellektual tizim ta’lim jarayonining talaba uchun optimal tarzda kechishini ta’minlaydi.

Muloqot tizimchasi ilm oluvchi bilan individual tarzda va tarmoq rejimida ishlashda, masofadan turib o‘qitish jarayonida o‘zaro muloqotni ta’minlash uchun xizmat qiladi. Bu tizim talabaning shaxsini aniqlashga, uning o‘qitish tizimchasidan bilimlar bazasidan, ma’lumotlar va o‘quv-axborot materiallaridan foydalana olishini ta’minlashga qaratilgan. Talaba va tizim o‘rtasidagi muloqot tushunish uchun qulay bo‘lgan shakllarda va sodda tilda amalgaloshirilishi lozim.

Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning intellektual tizimini amalgaloshirish jarayonining umumiyo ko‘rinishini quyidagi sxema tarzida ifodalash mumkin: foydalanuvchining shaxsi tasdiqlangandan keyin, uning tizimga kirish huquqi aniqlanadi, o‘qitishni boshqarish tizimchasing moduli talabaning individual kartasining holatini tahlil qiladi, navbatdagi o‘qitishning maqsadi, metodikasi va vazifalarini belgilaydi. Topshiriqlarini shakllantirish moduli tanlangan metodika va bilimlar bazasi ma’lumotlariga asoslanib, o‘qitish vazifasini ishlab chiqadi. Talaba qo‘yilgan vazifani bajaradi (nazariy materialni o‘rganish, amaliy ishni bajarish, test, savollarga javob yozish va h.k.), bunda tizim bilan muloqot ta’minlanib turiladi, ya’ni talabaning ishi nazorat qilinib, kerak bo‘lsa, yordam ko‘rsatib turiladi. Natijalarni tahlil qilish moduli yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni, sodir bo‘lgan qiyinchiliklarni aniqlaydi va talabaning individual kartasiga o‘zgartirishlar kiritadi. Shu bilan o‘qitish sikli yakunlanadi va tizim keyingi jarayon uchun tayyorlik holatiga o‘tadi. Foydalanuvchining o‘zi vazifani aniqlashi mumkin (ekranga nazariy materialning kerakli qismini yoki topshiriqni chiqarish, mavjud bo‘lgan lug‘atlar va manbalarga murojaat etish, individual kartani ko‘rib chiqish va h.k.).

Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning intellektual tizimi talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, yopiq tizimda, avtomatlashtirilgan boshqaru vositasida, mustaqil, individual, jamoaviy va masofaviy shakllarda shaxsning kamolotiga yo‘naltirilgan, aniq maqsadlarga qaratilgan ta’lim jarayonini amalgaloshirish uchun optimal tarzda kechishini ta’minlaydi.

oshirish imkonini beradi.

Yoshlarni intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o‘ynaydi. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati Shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo‘yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko‘nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun talabaning ongiga, dunyo qarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta’sir etib boriladi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida bulardan birortasi e’tibordan chetda qolsa, ko‘zlangan maqsadga erishish qiyinlashadi. Mana Shu psixologik jihatlarni e’tiborga olingandagina yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib uni rivojlantrishga imkon yaratiladi.

Ta’lim-tarbiya berish jarayonida ta’limning ma’lum bir maqsadga qaratilishi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayoni yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirmsandan turib ularni ijodiy rivojlantirib bo‘lmaydi. Talabalarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi har qanday maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari o‘qituvchi tomonidan rejalashtiriladi va ketma-ket bajariladigan usullar belgilab olinadi:

1.O‘quvchi-talabalarning intellektual ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi hislatlarini uyg‘otish va rivojlantirish rejalashtiriladi.

2.Mana Shu hislatlarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi usullarni yaratish yoki intellektual ijodiy salohiyatni oshirib borishga xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

3.Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Mana Shunday rejaga solinib olib boriladigan ishlarni amalga oshirish ta’lim-tarbiya tizimi jarayonida ham yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirib boradi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniylar faoliyatini oshirib boradi. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlari ko‘p qirrali jarayon uzoq muddat davom etadigan

jarayon. Yoshlarning faolligi, ikki tomonlama xususiyat qarama-qarshiliklarning ko‘pligi ko‘p qirrali jarayonda o‘quv maskani, oila, mahalla va keng jamoatchilik, kino, teatr, televideniya,adabiyot va san’at ishtirok etadi. Bu jarayonga bolaning tug‘ma iste’dodi kiradi. Bu xususiyatda ta’limdan farqli ravishda u bola tug‘ilganidan boshlanadi, maktab davrida, undan keyin, va butun umr davom etadi. Intellektual ijodiy salohiyatning ta’limdan farqlantiruvchi xususiyati yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Bunda tarbiyaning turlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Bunga yoshlarning tug‘ma iste’dodi hamda olgan bilimlari asosidagi intellektual ijodiy salohiyati kiradi. Bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, bunda bolaning o‘zi ham faol ishtirok etadi.

Bu qarama–qarshiliklar bolalarda o‘z tushunchalariga muvofiq dastlabki paydo bo‘lgan intellektual ijodiy salohiyat bilan ta’lim-tarbiya tomonidan tarkib toptirilayotgan sifatlar o‘rtasida talabalarga qo‘ylgan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari o‘rtasidagi kurashlarda namoyon bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy xolat va amaliy misollarga qaramay qobiliyat va uning rivojlanish muammosi psixologiya va pedagogikaning eng murakkab masalalaridan biri xisoblanadi. Qobiliyat sezgi analizatorlari, kuch, xarakat xamda asabiy, jismoniylari aqliy jarayonlar muvofiqlashishi kabi nerv sistemasi xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan tabiiy iqtidor, iste’dod, Shuningdek, tashqi ijtimoiy muxit ta’siri ostida rivojlanadi. Shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi qobiliyatlar unga qandaydir tabiat tomonidan tug‘ma ravishda, tayyor xolda berilmaydi, balki xayot va faoliyat jarayonida tarkib topadi. Kishi dunyoga xech qanday psixik xususiyatlarsiz, faqat ularni orttirishga qaratilgan umumiy imkoniyatlar bilan keladi, xolos. Xozirgi paytda iste’dod nishonalarini miyaning va sezgi organlarining mikrostrukturasi bilan bog‘laydigan nazariya eng maxsuldar xisoblanadi. Miya xujayralarini chuqrur o‘rganish iste’dodli kishining nerv to‘qimalarini ko‘rsatadigan morfologik va funksional xususiyatlarida farq borligini aniqlash imkoniyatidadir deb taxmin qilish mumkin. Shuningdek, iste’dod nishonalarini nerv jarayonlarining ayrim differential xususiyatlari bilan (nerv kuchi, muvozanatlaShuvi va xarakatchanligi o‘rtasidagi farqlarga qarab) va

Shu bilan oliy nerv faoliyatini turlari bilan bog‘lovchi gipoteza xam xaqiqatga yaqinroqdir. Jiddiy statistika qobiliyatlar va iste’ dodlarning irsiyat yo‘li bilan o‘tishini isbotlaydigan xech qanday dalillar bermaydi. Qobiliyatlarning irsiyat yo‘li bilan o‘tishi haqidagi ilmiy nazariyaga xam qarama – qarshidir. Garchi qobiliyatlarning rivoji xar turli odamlarda mutlaqo bir xil bo‘lmagan tabiiy shart-sharoitlarga bog‘lik bo‘lsa xam, yuqorida ko‘rib o‘tilgan iste’ dod nishonalarini va qobiliyatlar o‘rtasidagi nisbat, qobiliyatlar Shunchaki tabiat in’omi emas, balki kishilik tarixining maxsuli ekanligini ko‘rsatadi. Agar hayvonlarda oldingi avlod yutuqlarining keyingi avlodga o‘tkazib berilishi asosan organizmning irsiy morfologik o‘zgarishlari orqali amalga oshsa, insondan bu ijtimoiy-tarixiy yo‘l bilan, ya’ni mexnat quroli, til, san’at asarlari va Shu kabilalar bilan amalga oshadi.

Kishi o‘zida muayyan faoliyatga qobiliyat bor yoki yukligini sezish yoki sezmasligini bildiradigan omil ta’lim metodikasi xisoblanadi. Ta’lim metodikasi qayerda ojiz bulsa, o‘sha yerda qobiliyatlarning tug‘ma ekanligi haqidagi gaplar paydo buladi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, metodika doim takomillashib boradi, bu esa «tug‘ma qobiliyatlar» doirasini torayib borishiga olib keladi. Qobiliyatlar va iste’ dodlarni shakllantirish muammo si katta ijtimoiy va davlat axamiyatiga ega bo‘lgan masaladir. Inson qobiliyatlarini rivojlantirishning muxim omillari – barkaror maxsus qiziqishlardan iborat. Maxsus qiziqishlar – bu insoniyat faoliyatining qandaydir soxa mazmuniga bo‘lgan qiziqishlari bo‘lib, bu qiziqishlar ana Shu turdagi faoliyat bilan kasb tariqasida Shug‘ullanish moyilligiga o‘sib ko‘tariladi. Bilishga doir qiziqish bu o‘rinda faoliyat usullari va uslublarini amaliy ravishda egallab olishni rag‘batlantiradi. Biror mexnat yoki o‘quv faoliyatida qiziqishning paydo bo‘lishi bu faoliyatga nisbatan qobiliyatlarning uyg‘onishi bilan chambarchas bog‘liqligi va qobiliyatlarning rivojlanishi uchun dastlabki zamin sifatida xizmat qilishi qayd etilgan. Ko‘pgina burjua olimlari qobiliyatlar tug‘ma bo‘ladi va avloddan – avlodga o‘tib turadi, deb hisoblaydilar. Bu nazariya tarafdarlarining davo qilishicha unchalik qobiliyatli bo‘lmagan ko‘pchilik kishilar orasidan layoqatli kishilar oilalari kam bo‘ladi, bu oilalardagi kishilarning qobiliyatları avloddan avlodga o‘tib keladi. Ayrim burjuaziya tadqiqotchilarining ma’lumotlariga qaraganda anaShu “Talant makonlari” hamisha

imtiyozli sinflarga mansub bo‘lib, ayni vaqtida mehnatkash xalqning ko‘philigi orasida qobiliyatli kishilar deyarli yo‘q emish. Shuni ko‘rish qiyin emaski bunday konsepsiya burjua olimlarining oddiy kishilar tug‘ma ravishda mukammal emas, boy va mashhur kishilar tabiatan qobiliyatli deb ilmiy jihatdan isbotlashga intilishga, bu bilan esa ularning xalq ommasi ustidan rahbarlik qilish va ekspluatatsiya qilish huquqini oqlashga qaratilganligini ko‘rish qiyin emas.

Shu narsa ravshanki anaShu “Olimlar” ning chiqargan bu xulosalaridan hech qanday ilmiy narsa yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Lekin qobiliyatlar to‘g‘risida bunga butunlay qarama-qarshi bo‘lgan nuqtai nazar ham mavjud bo‘lib, bu nuqtai nazar tug‘ma sifatlarni to‘la-to‘kis inkor qiladi va hamma narsa faqat tarbiyaga hamda kishi voyaga yetib, rivojlanayotgan, ishlayotgan shart-sharoitga bog‘liq deb hisoblaydi. Xozirgi zamon psixolog olimlari qibiliyatlar miya va sezish organlarining tuzilishiga bog‘liq ular har xil kishilarda tug‘ilgan vaqtidayoq turlicha bo‘ladi deb hisoblaydilar. Har bir kishida tug‘ma layoqat nishonalari ya’ni miyaning oliv nerv faoliyatining analizatorlarining o‘ziga xos xususiyatlari bor bo‘ladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyatni rivojlantirishga bo‘lgan muayyan moyillik ana Shunga bog‘liqidir. Tabiiy anatomik–fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarining fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalaring majmui kishining istedodi deyiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, qobiliyat faoliyat davomida rivojlanadi. Akademik B.A.Obruchev muskullar singari qobiliyatlar ham mashq paytida rivojlanadi deb bekorga aytmagan Shuning uchun qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti-faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni tarbiyalashdir. Ishlashni yoqtirmaydigan, aqliy mehnatdan ham jismoniy mehnatdan ham o‘zini olib qochadigan kishilarga qobiliyatlar rivojlanmaydi. O‘z faoliyatida katta muvaffaqiyatlarga erishgan barcha ardoqli kishilar qobiliyatlarini rivojlantirish uchun jiddiy mehnat qilishning ahamiyati haqida gapiradilar. “Talant, -deydi mashhur aviakonstektor, ikki marta sotsialistik Mehnat Qahramoni A.Syakovlev, - olloning inomi emas... bu avvalo sabr toqatga ko‘paytirilgan mehnat, mehnat va yana bir karra mehnatdir. Mehnatga bo‘lgan ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga qiziqish va unga odatlanish katta ahamiyatga egadir.

Qobiliyatlar shaxsning boshqa sifatlari bilan uzviy bog‘langan.

Kishining talantli ekanligi ma'lum darajada uning psixik jarayonlari (idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqi, tasavvuri, diqqat), Shuningdek, ko'pgina psixik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ayrim qobiliyatlarini rivojlantirishda tegishli bilish jarayonlarining yuqori darajada bo'lishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shaxsdagi ko'pgina jarayonlar va xususiyatlarning ayniqsa kuchli rivojlanishi kishining umumi ravishda har tomonlama layoqatli bo'lishga olib keladi. Kishi o'z qobiliyatlarini rivojlantirish bilan Shug'ullanar ekan, bu rivojlanish quruq maqsaddan iborat bo'lib, qolmasligiga intilish kerak. Qobiliyatlar-shaxsning faqat bir tomoni, uning psixik xususiyatlaridan biridir. Agar talantli kishi axloqiy jihatdan qat'iyatli bo'lmasa, u ijobjiy shaxs deb hisoblanishi mumkin emas. Aksincha, yuksak ma'naviy darajaga, prinspiallik, axloqiy his-tuyg'ularga va kuchli irodaga ega bo'lgan layoqatli kishilar jamiyatga juda katta foyda keltirganlar va foyda keltirmoqdalar. Testlarni tatbiq etish o'quvchilarga o'z shaxsiyatidagi xususiyatlarni chuqurroq anglash, kasb tanlashdek murakkab muammoning yechimini oson topish, o'z shaxsiyatining kuchli va ojiz tomonlarini chuqurroq bilib olish imkonini beradi.

Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muxim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatları yo'nalishini ochib berishdir. Shuning uchun xam xozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarini diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda qobiliyatlarini o'lhash muammozi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga kelib izchil xal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rghananildi. Ular qobiliyat va iqtidorni o'rghanish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiyoq moxiyati Shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar - topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzenkning mashxur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu yerda vaqt mezoni muxim xisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishslash - qobiliyatsizlik belgisi 'vfc deb, boshqacharoq usullarni o'ylab topganlar. Ko'pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni o'lhashning ishonchli

mezoni - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o‘zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir.

Rus olimi Ye.A.Klimov yoshlar iqtidorining yo‘nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb-xunar soxalarini asos qilib olib, metodika yaratdi va uning «Professional - diagnostik so‘rovnoma» deb atadi. Shunday qilib, u barcha kasblarni ularning yo‘naltirilgan soxasiga ko‘ra 5 toifaga bo‘ldi:

P(T) - tabiat (o‘simlik, xayvonlar, mikroorganizmlar);

T - texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari) ;

Ch (O)- odam (odamlar guruxi, jamoalar);

Z (B)- belgilar (turli malumotlar, belgili simvollar);

X (I)- badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san’at, musiqa).

So‘rovnoma shaxsni turli kasblarga moyilliqni aniqlaydi. Unga 20 juft savollar kiritilgan bo‘lib, tekshiriluvchi maxsus javob varaqasida qay darajada u yoki bu mashgulot turi bilan Shugullanishga moyilligini belgilashi kerak. Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muxim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko‘ra shaxs qobiliyatları yunalishini ochib berishdir. Shuning uchun xam xozirda ko‘plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo‘llanmokda.

Nazariya elementlari, yugorida ko‘rib o‘tganimizdek, sportchi tayyorgarligining taktik, texnik va boshqa turlari bilan organik aloqada ekan. Shu bilan bir qatorda nazariy tayyorgarlik qisminibiroz shartli ravishda boshqalardan. Sportchi uchun zarur bo‘lgan bilimlarning Shundaykeng doirasi mavjudki ular yuqorida keltirilgan tayyorgarlik qismlarining hech biriga kirmaydi.

Sport tarixi va sotsiologiyasi, sport mashg‘uloti vaunga yaqin predmetlarning gigiyena, tibbiy nazorat va hokazolarning) nazariya hamda metodikasi bo‘yicha bilimlar ana Shular jumlasidandir. Ana Shu bilimlarni o‘zlashtirib olisin nazariy tayyorgarlik qismini tashkil etadi ajratiladi. Sport rivojlanishi bilan birga nazariy tayyorgarlikning roli ham tez o‘sib boradi. Sportchining nazariy tayyorgarligi asosan aqliy ma’lumot olish va mustaqil mutolaaga xarakterli bo‘lgan (ma’ruza, semina, kitob ustida mustaqil ish olib borish) shakkarda olib boriladi. Nazariy tayyorgarlik bevosita sport mashg‘ulotlarida

texnik, taktik, ma'naviy-irodaviy va jismoniy tayyorgarliklar bilan birgalikda amaliy mashg'ulotlarning bir elementi sifatida bo'ladi. Shunday qilib, sportchining tayyorgarligi ko'p qirrali va ko'p tomonli jarayondir. Uning barcha tomonlari o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'liqdir. Masalan, jismoniy tayyorgarlik texnik va taktik tayyorgarlik sohasidagi vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan zamin va shart-sharoitlarni yaratadi. O'z navbatida jismoniy tayyorgarlik jarayonining o'zi ham, uning pirovard natijalari samarali chiqishi ham ko'p jihatdan texnik va taktik tayyorgarlikka bog'liq. Mashg'ulot jarayonining muayyan davrlarida tayyorgarlikning bu tomonlari ko'p jihatdan bir-biriga ancha o'xshab ketadi. Xuddi ana Shunday mustahkam o'zaro aloqadorlik tayyorgarlikning boshqa qismlari o'rtasida ham mavjuddir. Shu munosabat bilan ma'naviy iroda tayyorgarligi ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi, chunki u sportchining umuman o'z faoliyatiga munosabati qanday ekanligini ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rganimizdek, sport mashg'uloti sportchi tayyorgarligining butun mazmunini va barcha formalarini qamrab olmaydi. U doimiy ravishda tayyorgarlikning boshqa formalari bilan to'ldirib turiladiva tarbiya umumiy tizimining tarkibida bo'ladi.

1.2. Intelektual ijodiy salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.

Yoshlarni intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o'ynaydi. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati Shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo'yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, dunyo qarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta'sir etib boriladi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida bulardan birortasi e'tibordan chetda qolsa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyinlashadi. Mana

Shu psixologik jihatlarni e'tiborga olingandagina yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantrishga imkon yaratiladi. Ta'lim-tarbiya berish jarayonida ta'limning ma'lum bir maqsadga qaratilishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoni yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirmasdan turib ularni ijodiy rivojlantirib bo'lmaydi. Talabalarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi har qanday maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va ketma-ket bajariladigan usullar belgilab olinadi:

Xozirgi paytda iste'dod nishonalarini miyaning va sezgi organlarining mikrostrukturasi bilan boglaydigan nazariya eng maxsuldor xisoblanadi. Miya xujayralarini chuqur o'rghanish iste'dodli kishining nerv turkumalarini ko'rsatadigan morfologik va funksional xususiyatlarda farq borligini aniqlash imkoniyatidadir deb taxmin qilish mumkin. Shuningdek, iste'dod nishonalarini nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari bilan (nerv kuchi, muvozanatlaShuvi va xarakatchanligi o'rtasidagi farqlarga qarab) va Shu bilan oliv nerv faoliyati turlari bilan bog'lovchi gipoteza xam hakikatga yaqinroqdir.

Bulardan tashqari, qobiliyatlarni tabiiy asoslarini nerv sistemasining xususiy xususiyatlari deb atalgan xususiyatlar bilan boglaydigan, ya'ni ayrim odamlarda ko'rish, boshqa odamlarda eshitish, uchinchi bir xilida esa xarakat soxasida namoyon buladigan o'ziga xos tipologik xususiyatlar bilan boglaydigan gipotezalar yana xam haqiqatga yakinrokdir. Jiddiy statistika qobiliyatlar va iste'dodlarning irsiyat yo'li bilan utishini isbotlaydigan xech qanday dalillar bermaydi. Qobiliyatlarning irsiyat yo'li bilan o'tishi haqidagi ilmiy nazariyaga xam qarama – qarshidir. Psixologiya fani differensial qobiliyatlarning tug'ma bo'lishini inkor etmagan.

Qobiliyatlarning rivojlanishiga tabiiy zamin bo'luvchi xatti – harakat organlari va miya tuzilishidagi bu morfologik va funksional xususiyatlar layoqat deb ataladi.

Layoqatlar turlicha yo'nalishda bo'ladi, bir layoqat zaminida turli qobiliyatlar shakllanishi mumkin, bu faoliyat «xarakter»iga bog'liqdir. Bugungi kunda qobiliyatlarni rivojlanishida tabiiy asosning modiyati haqidagi farazlarning to'g'ri yoki noto'g'riliqi haqida ko'plab gapirish mumkin. Albatta qobiliyatlar tushunchasi

kabi layoqat muammosi ham o‘z tarixiga ega. Lekin, ushbu masalarning to‘g‘ri yechimi hali ham oxiriga yetmagan.

Qobiliyatni irsiy asoslari bo‘yicha fanda turli qarashlar mavjud. Avstraliya olimi F.Gall (1758-1828) miya va alohida qobiliyatlar orasida bog‘liklik bor degan farazni ilgari suradi. Qachonlardir bu faraz juda mashhur edi, u qobiliyatlarni miya bilan bog‘lagan edi. Lekin F.Gallning aqlning, talant va qobiliyatlarning sifati miyaning katta yarim sharlarida ayrim joylarda joylashgan degan fikri fanda inkor etilgan. Lekin hali ham miya og‘irligi va qobiliyatlar orasida bog‘liqlik bor degan fikrlar mavjud. Katta peshonali kishilarni aqli, aql-farosatli, muammolarni tez hal qiluvchi bo‘ladi degan fikrlarga hali ham duch kelamiz va aksincha peshonasi tor bo‘lgan kishilarga nisbatan esa qarama-qarshi fikrlar bildiriladi. Albatta, bu fikrlar o‘z tasdig‘ini topmagan. Ma’lumki, katta kishi miyasi 1400 g og‘irlilikka ega. Shu jumladan, I.S.Turgenevning miya og‘irligi 2012, D.Bayronniki -1800g., N.Franeniki 1017, mashxur ximik Yu.Libixniki 1362 g. bo‘lganligi aniqlangan.

Yana Shu ham ma’lumki bir aqli zaif kishining miya og‘irligi katta bo‘lgan (2kg.ga yaqin). Demak yuqorida gapirilgan fikrlar o‘z isbotini topmadni. Fan esa izlanishlarni davom ettirmoqda. Bugungi kunda layoqatlarni miyaning mikrotizimi va sezgi organlari orasidagi bog‘liqligi haqidagi faraz o‘zining mahsuldorligini namoyon qilmoqda. Shuni unutmaslik kerakki har qanday layoqat qobiliyati darajasiga yetishi uchun ma’lum rivojlanish yo‘lini bosib o‘tishi lozim. Har qanday qobiliyatning birinchi etapi zarur organik tizimlar va funksional organlar yetishishi bilan bog‘liq (tug‘ilgandan to 6-7 yoshgacha). Maxsus qobiliyatlarning shakllanishi kichik va o‘rta maktab yoshigacha davom etadi. Kuzatuvlar Shuni ko‘rsatadiki, qobiliyatlarni faol shakllanishi shaxs rivojlanishining ilk bosqichlarida namoyon bo‘la boshlaydi. Shunday voqealar ma’lum jumladan, Motsart 9 yoshida musiqiy pessalarni chala boshlagan. Rafael 8 yoshida, Repkin - 4 yoshida rasm chiza boshlagan, Pushkin 7 yoshida. Lermontov esa - 8 yoshida she’r yozgan. Kibernetika otasi Viner 12 yoshida universitetga o‘qishga kirgan. Lekin qobiliyatlarni kechroq namoyon bo‘lishi ham mavjud (Akeakov, Shishkov).

Insonning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi faoliyatga quyiladigan asosiy talablar:

- faoliyatning ijodiy xarakteri;
- ijrochi uchun uning yuqori qiyinligi;
- zarur motivatsiya va zarur emotsiyonal tayyorgarlikni ta'minlashni.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, agar bajarilayotgan faoliyat yuqori qiyinchilikda bo'lsa, u bolaning qobiliyatlarini rivojlanishiga asos bo'ladi, buni L.S. Vigotskiy rivojlanishning yaqin zonasini deb atagan.

Shuni unutmaslik kerak-ki bola uchun, uning qobiliyatlarini rivojlanishi uchun eng hal qiluvchi sharoit ta'lim va tarbiyadir. Bugungi kunda Respublikamizda qobiliyatlarini shakllantirish muammosi ijtimoiy va davlat muammosiga aylangan. Ushbu muammoni xal qilish maqsadida Respublika tashxis markazlari va barcha viloyat va tumanlarda Shunday markazlar tashkil qilingan. Bugungi kunda maxsus qobiliyatlarini aniqlangan o'quvchilar o'zlarini iqtidorini namoyon qilgan holda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarga ixtiyoriy-majburiy ravishda o'z ishlarini davom ettirib, yo'llarini tanlamoqdalar. Bugungi kunda psixologiya fani bu yo'lda muxim o'rinnarini egallamoqda.

Inson qobiliyatlarini rivojlanishning muxim omillari – barkor maxsus qiziqishlardan iborat. Maxsus qiziqishlar – bu insoniyat faoliyatining qandaydir soxa mazmuniga bo'lgan qiziqishlari bo'lib, bu qiziqishlar ana Shu turdagini faoliyat bilan kasb tarikasida Shug'ullanish moyilligiga o'sib ko'tariladi. Bilihga doir qiziqish bu o'rinda faoliyat usullari va uslublarini amaliy ravishda egallab olishni rag'batlantiradi. Integral tayyorgarlik sportchining tayyorgarligining turli tarkibiy qismlarini - texnik, jismoniy, taktik, psixologik, intellektual, mashg'ulot va musobaqa faoliyati jarayonida uyg'unlashtirish va kompleks amalga oshirishga qaratilgan. Gap Shundaki, tayyorgarlikning har bir tomoni tor yo'naltirilgan vositalar va usullar bilan shakllanadi. Bu o'quv mashqlarida namoyon bo'ladigan ma'lum fazilatlar, qobiliyat va ko'nikmalar ko'pincha musobaqa mashg'ulotlarida o'zini namoyon qila olmasligiga olib keladi. Shu sababli, raqobat faoliyatida tayyorgarlikning barcha tomonlarini kompleks namoyon qilishning izchilligi va samaradorligini ta'minlaydigan maxsus trening bo'limi kerak.

Ko'rsatilgan qobiliyatlarning tuzilishi va tabiatini bo'yicha raqobatbardosh qobiliyatlarga imkon qadar yaqin bo'lgan maxsus

tayyorgarlik mashqlari. Shu bilan birga, tanlov shartlariga rioya qilish muhimdir.

Har qanday sport turida integral tayyorgarlik sport mahoratini egallash va oshirishning muhim omillaridan biridir. Masalan, sport o‘yinlarida yaxshi o‘ynash uchun jamoa yil davomida ko‘p o‘ynashi kerak. Texnika yoki kuchni rivojlantirish, moslashuvchanlikni oshirish yoki muayyan taktik elementlarni yaxshilash uchun mashqlarni bajarish va hokazo. amaliyat va musobaqa o‘yinlarini almashtira olmaydi. Faqat o‘yinlarda har bir sportchining imkoniyatlari to‘liq ochib beriladi, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik va tushunish o‘rnataladi va mustahkamlanadi, texnik va taktik ko‘nikmalar takomillashtiriladi, tananing barcha a’zolari va tizimlarining, aqliy fazilatlari va shaxsiyat xususiyatlarining uyg‘un rivojlanishi ta’milanadi. sportning ushbu turiga xos bo‘lgan murakkab raqobat muhitni talablariga muvofiq.

Integral mashg‘ulotlar jarayonida tayyorgarlikning barcha jihatlarini har tomonlama takomillashtirishni ta’minlaydigan umumiy yo‘nalish bilan bir qatorda, sportchining erishishga tayyorgarligining bir nechta tarkibiy qismlarini konyugatsiya bilan takomillashtirish bilan bog‘liq bir qator alohida yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish tavsiya etiladi. - jismoniy va texnik, texnik va taktik, jismoniy va taktik, jismoniy va psixologik va boshqalar.

Integral o‘qitish samaradorligini oshirish uchun turli xil metodik usullar qo‘llaniladi. Bularga quyidagilar kiradi: haqiqiy musobaqa mashqlarini bajarish shartlarini osonlashtirish, qiyinlashtirish va murakkablashtirish.

Ushbu mashqlarda individual maksimal natijalarga erishish uchun tizimli jismoniy mashqlar "sport" va "sport mashg‘ulotlari" tushunchalari bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, sportchi mashg‘ulot yuklari va atrofdagi voqelikning boshqa omillari ta’sirida tanada yuzaga keladigan barcha murakkab jarayonlarni yaxshi bilishi kerak. Tayyorgarlikning asosiy shakllari quyidagilardir: mashg‘ulot darsi (mashq), musobaqlar, qo‘srimcha mashg‘ulotlar (mashqlar, mustaqil mashg‘ulotlar, tiklanish faoliyati va boshqalar).

- jismoniy tayyorgarlik;
- texnik tayyorgarlik;
- taktik tayyorgarlik;

- psixologik tayyorgarlik;
- nazariy (integral) ta'lif.

Har bir bo'limning o'ziga xos vazifalari bo'lib, muayyan vositalar, usullar qo'llaniladi, ular sport turi, sportchining tayyorgarlik darajasi, yoshi, sport musobaqalari taqvimi, shartlari bilan belgilanadi.

1.3. Mashg'ulot jarayonining mazmuni va struktursani

Mashg'ulot davrlari hususiyatlarini ko'rsatish har bir davrda mashg'ulot jarayonining mazmuni va struktursani xarakterlab beruvchi o'ziga xos belgilarni ko'rsatish va Shu bilan birga bir davrdan ikkinchi davrga o'tilishi munosabati bilan bu belgilarni qanday o'zgarishini kuzatib borish demakdir. Shuni unutmaslik kerakki, davrlash asosan sportchini tayyorlashning amaliy bo'limlariga taaluqlidir. Sportchining ongini va xulqini umuman tarbiyalash singari bo'limlarning esa, o'z taraqqiyot mantiqi bo'lib, ular mashg'ulot davrlariga qismangina bog'liqidir.

Fundamental davrida, yuqorida aytganimizdek sport formasiga kirish uchun kerakli sharoit yaratilishi va rivojlantirilishi hamda sport formasi bevosita paydo bo'lishi ta'minlanishi lozim. Shunga binoan bu davr ikki asosiy bosqichga bo'linadi. Ularning birinchisi, odatda ko'proq davom etadigan bosqichdir. Fundamental davrining birinchi (umumiy tayyorgarlik) bosqichi

Mashg'ulotning yo'nalishi. Birinchi bosqichda sport formasining mustahkam poydevorini yaratish krak. Bu vazifa sportchi tayyorgarligining asosiy bo'limlariga muvofiq quyidagicha aniq hal etiladi.

Jismoniy tayyorgarlikda birinchi darajali vazifa organ-izmnining barcha jismoniy xislatlarini har tomonlama rivoj-lantirish yo'li bilan uning funksional imkoniyatlari umumiy darajasini ancha yuksaltirishdan iborat. Mazkur bosqichdagi jismoniy tayyorgarlik ixtisosni chuqurlashtirishdan ham ko'ra ko'proq tanlangan sport turida progressga bevosita yoki bilvosita sabab bo'luvchi funksional imkoniyatlarni yanada kengaytirishga qaratilgandir. Buning sababi Shundaki, sport formasi kelajakda qay darajada bo'lishi avvalo jismoniy tayyor ekanlikning dastlabki darajasiga,

Shuningdek, umumiy jismoniy tayyorgarlik maxsus tayyorgarlikka nisbatan asos soluvchi rol o'ynashiga bog'liq. Birinchi bosqichda sportchining jismoniy kamol topishidagi turli yo'naliishlarning o'zaro aloqadorligidan foydalanish uchun ancha qulay imkoniyatlar mavjud. Jismoniy sifatlarning «bevosita va bilvosita o'tishi» dan keng foyda-lanish jismoniy tayyorgarlikning bu bosqichdagi asosiy mexa-nizmi bo'lib xizmat qiladi.

Sport texnik - taktik tayyorgarlikda birinchi bosqichdagi xarakterli vazifalar quyidagilardan iborat: sport faoliyatining nazariy asosini tashkil etuvchi bilimlar olish va ularni mustahkamlash; tanlangan sport turida kamolatga erishiShuchun qulay sharoit yaratuvchi xarakat mahorati va malakalari fondini kengaytirish; tanlangan sport texnikasi va taktikasi (asosan, xususiy va bir-biriga o'tuvchi) tarkibiga kiruvchi mahorat va malakalarni shakllantirish yohud qayta tarbiyalash va takomil-lashtirish.

Mazkur vazifalar tanlangan sport turida texnik - taktik jihatdan kamolotga erishish birinchi galda umumiy jismoniy ma'lumotga, bilim, malaka va mahoratini tizimli ravishda boyitib borishga bog'liq ekanlgidan kelib chiqadi. Shuningdek, harakat ko'nikmalarining ijobiliyalaridan foydalanish va «salbiy ta'sir ko'rsatuvchi» larini engib o'tish yo'li bilan tanlangan sport turidagi xususiy va «mayda» malakalardan yaxlit formalarga o'ta borish ham qonuniy bir holdir. Ma'naviy - irodaviy tayyorgar-likda katta hajmdagi tayyorgarlik ishlariga intilishni shakllan-tirish, sportchiga hos mehnatsevarlikni tarbiyalash, sport faoliya-tidagi muvaffaqiyatni ta'minlovchi irodaviy imkoniyatlar umu-miy darajasini yuksaltirish birinchi bosqichda alohida ahamiyat kasb etadi.

Vosita va uslublar tarkibining xususiyatlari. Fundamental davrining boshlang'ich bosqichi yuqorida bayon etib o'tilgandek, mashg'ulot vositalarining ayniqsa keng kopleksi mavjud ekani bilan farq qiladi. Mazkur bosqichda har tomonlama ta'sir etuvchi mashqlar (tanlangan sport turiga nisbatan) keyingi bosqichlarga qaraganda ancha ko'proq bo'ladi. Jumladan, umumiy chidamlilikni tarbiyalaydigan, kuch - quvvat fazilatlarini hamda koordinatsion imkoniyatlarni tarbiyalash uchun berilgan mashqlar koordinatsion imkoniyatlarni umumiy takomillashtiradigan mashqlarga ko'proq o'rin beriladi; mashqlarning xilma - xillagini tanlashda ancha erkin

variatsiyalarga ham yo‘l qo‘yilmaydi.

Musobaqa mashqlariga (tanlangan spor turida) esa, mazkur bosqichda minimal o‘rin beriladi. Masalan, bu bosqichda bir qator kuchli og‘ir atletikachilarning bunday mashqlari shtanga bilan bajariladigan Yuklamalar umumiy hajmining 1,5-2 foizini, yuguruvchi sprinterlar va suzuvchilarda yugurish yoki suzish umumiy masofaning 0,5-1 foizini tashkil etadi.

Ayrim hollarda, masalan, sportning «mavsumiy» turlarida asosiy musobaqa mashqlari mashg‘ulotdan umuman tushib qoladi. Bunda yaqinlashtiruvchi malakalarni o‘zlashtirshga va zarur hususiyatlarni tanlab rivojlantirshga qaratilgan xilma-xil maxsus tayyorlov mashqlari ixtisoslashtirishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi.

Gap Shundaki, musobaqa mashqlari birinchi bosqichda faqat eski(ilgari o‘zlashtirilgan) malakalar shaklida bajarilishi mumkin. Shuning uchun ulardan tayyorgarlik ko‘rishning asosiy vositasi sifatida foydalanish odat bo‘lib qolgan harakat mustahkamlanishiga olib keladi. Bu esa, kamol topish davom etishiga halaqit beradigan to‘singga aylanib ketishi mumkin. Bundan tashqari bu bosqichda musobaqa mashqlarining ta’siri nisbatan tabaqlashmagan, Shu bilan birga ozmi - ko‘pmi darajada bir yoqlama bo‘ladi. Vaholanki, birinchi bosqichda sport formasining asosisni tashkil etuvchi barcha komponentlarga ta’sir etish har tomonlama va aniq tanlab yo‘naltirilgan bo‘lishi nihoyatda muhimdir.

Musobaqa mashqlarining hissasi, albatta, sport turining o‘ziga xos xususiyatlariga, sportchining dastlabki tayyorgarlik darajasiga va boshqa holatlarga bog‘liq bo‘ladi. Musobaqa hara-katlari murakkab tarkibli juda ko‘p variantli sport turlarida (sport o‘yinlari, yakkamay akka oliShuv, ba’zi bir ko‘pkurashlarda) bunday mashqlarning miqdori yuqorida keltirilgan misollarga qaraganda ancha ko‘proq bo‘ladi.

Birinchi bosqichda umumiy tayyorgarlik yo‘nalishi etakchi o‘rinda bo‘lgani tufayli, bu erda mashg‘ulot uslublari ham keyingi bosqichlardigiga qaraganda nisbatan ancha kam ixtisoslashtirilgan bo‘ladi. Tanlangan sport turida mashg‘ulot uchun tipik bo‘lgan uslublar ixtisosga aloqasi bo‘limgan, lekin umumiy va maxsus tayyorgarlik sohasidagi xususiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan uslublar bilan to‘ldiriladi. Bunda Yuklamalarning asta

-sekin o'sib borishini ta'minlash uchun, nisbatan kamroq talablar qo'yadigan uslublarga, masalan, o'rtacha yoki o'zgaruvchan intensiv-likdagi siklli harakatlardan foydalanish vaqtি bir tekis hamda o'zgaruvchan mashq qilish uslublariga, o'rtasidagi dam olish intervallari o'zaytirilgan takroriy va orta boruvchi mashq uslublariga ko'proq ahamiyat beriladi.

II-BOB. PARALIMPIYA SPORTIDA JISMONIY TARBIYA YO'NALISHLARI. JISMONIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI”

2.1. Jismoniy tayyorgarlik

Sportchining jismoniy tayyorgarligi sog'lig'ini mustahkamlash va saqlash, sportchining jismoniy xususiyatlarini shakllantirish, tananing funksional imkoniyatlarini oshirish, jismoniy qobiliyatlarni - kuch, tezlik, muvofiqlashtirish, chidamlilik va moslashuvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Zamonaviy sport sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga yuqori talablarni qo'yadi. Bu quyidagi omillarga bog'liq:

1. Sport yutuqlarining o'sishi doimo sportchining jismoniy imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'tarishni talab qiladi. Misol uchun, yadroni 20 m dan uzoqroqqa surish uchun nafaqat mukammal texnika, balki juda yuqori darajadagi kuch va tezlikni rivojlantirish kerak. Hisob-kitoblar Shuni ko'rsatadiki, yadroning parvoz masofasini 1 m ga oshirish surish kuchini 5-7% ga oshirishni talab qiladi.

2. Jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi mashg'ulotlar va raqobatbardosh yuklarni oshirishning muhim shartlaridan biridir. So'nggi 20-25 yil ichida dunyodagi eng kuchli sportchilar orasida yillik sikldagi yuk ko'rsatkichlari 3-4 barobar oshdi. Natijada, surunkali miokardning ortiqcha kuchlanishi bo'lgan sportchilar soni keskin oshdi. Bu kasallik asosan jismoniy rivojlanishda, ayrim organlar va tizimlar faoliyatida nogironligi bo'lgan sportchilarga xosdir.

Jismoniy tayyorgarlik har qanday yoshdagи, mahorat va sportdagi sportchi uchun zarurdir. Biroq, har bir sport turi sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga - individual fazilatlar, funksional imkoniyatlar va jismoniy rivojlanish darajasiga o'ziga xos talablarni qo'yadi. Shuning uchun ham muayyan sport turida, turli yoshdagи va malakali sportchilar o'rtasida jismoniy tayyorgarlikning mazmuni va metodikasida ma'lum farqlar mavjud.

2.2. Jismoniy tarbiya turlari, vazifalari va vositalari

Umumiy jismoniy tayyorgarlik (GPP) va maxsus jismoniy tayyorgarlik (TFP) o‘rtasidagi farq.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik - bu tanlangan sport turiga xos bo‘lмаган, балки у ўoki bu tarzda sport faoliyatining muvaffaqiyatini shart qiladigan jismoniy qobiliyatлarni har tomonlama rivojlanadirish jarayoni.

UJT vazifalari:

1. Organizmning funksional imkoniyatlarining umumiy darajasini oshirish va saqlash.

2. Barcha asosiy jismoniy sifatlarni - kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik va moslashuvchanlikni rivojlanadirish.

3. Jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni bartaraf etish.

Umumiy jismoniy tarbiya vositalari o‘z va boshqa sport turlaridan mashqlardir. Chaqqonlik va moslashuvchanlikni rivojlanadirish uchun mashqlar ham muhim o‘rin tutadi. Umumiy chidamlilikni rivojlanadirish uchun mashqlar kamroq o‘ziga xos vaznga ega. Aksinchalik, uzoq masofaga yuguruvechilar uchun umumiy chidamlilik mashqlari alohida o‘rin tutadi. Ular OFP jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Kuch mashqlari kichik og‘irliliklar bilan bajariladi, lekin ko‘p sonli takrorlash.

SPP tanlangan sport turining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan jismoniy qobiliyatлarni rivojlanishiga qaratilgan. Shu bilan birga, ularning rivojlanishining maksimal darajasiga qaratilgan.

MJT vazifalari:

1. Sport bilan Shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan jismoniy qibiliyatлarni rivojlanadirish.

2. Tanlangan sport turidagi yutuqlarni belgilovchi organlar va tizimlarning funksionalligini oshirish.

3. Raqobat faoliyatining aniq sharoitlarida mavjud funksional salohiyatni namoyon etish qobiliyatлarini tarbiyalash. Masalan, suzuvchilarda laboratoriya sharoitida standart yuk ostida maksimal kislorod iste’moli (MOC) o‘rtacha 70 ml / kg min. Va raqobatbardosh tezlikda suzishda - 46 ml / kg / min, ya’ni. IPCning atigi 65%.

4. Muayyan sport intizomi talablarini inobatga olgan holda sportchilarning fizikasini shakllantirish. Masalan, turli masofalarga

ixtisoslashgan sportchilarda fizika ko'rsatkichlari (bo'yi, vazni, konstitutsiyasi va boshqalar), qoida tariqasida, bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun, SPP jarayonida tanlangan sport turidagi muvaffaqiyatga bog'liq bo'lgan va sport mashg'ulotlari vositalari va usullari yordamida maqsadli ravishda o'zgartirilishi mumkin bo'lgan jismoniy tarkibiy qismlarga bevosita ta'sir qilish kerak.

Sportchining SPP ning asosiy vositalari musobaqa va maxsus tayyorgarlik mashqlaridir.

Sportchini tayyorlashda GPP va SPP vositalarining nisbati hal qilinayotgan vazifalarga, sportchining yoshiga, malakasiga va individual xususiyatlariga, sport turiga, mashg'ulot jarayonining bosqichlari va davrlariga va boshqalarga bog'liq.

Sportchining malakasining o'sishi bilan TFP mablag'larining ulushi ortadi va Shunga mos ravishda GPP mablag'lari miqdori kamayadi.

Agar sportchi tayyorlov davrida etarli darajada yuksak Yuklamalar olmagan bo'lsa, ya'ni etarli darajada tez - tez masho'ulot qilmagan, musobaqalar va Shunga o'xshash tadbirlarda kam qatnash-gan bo'lsa, u holda o'tish davri zarur bo'lmay qoladi. Bunday hollarda mashg'ulot jarayonini ikkilangan sikl tipida, ya'ni musobaqa davridan keyin ikkinchi tayyorlov davri, so'ngara esa ikkinchi musobaqa davri va faqat uning ketidangina o'tish davri boshlanadigan qilib tashkil etgan ma'qul. YArim yillik sikllar-dan foydalananotgan paytdagi ayrim hollarda ham mashg'ulotning bunday tuzilishi to'g'ri bo'ladi.

5.2. Mashg‘ulot mezosikllarini tuzilishi.

Mezosikl mikrosikllar tizimi sifatida.

Mashg‘ulot mikrosikllari, mashg‘ulot jarayonlarining 3 dan 6 haftagacha davom etadigan jarayonidir. Mashg‘ulot jarayonini mezosikllar asosida tuzish Shu davrdagi tayyorgarlikni, mashg‘ulotdagi Yuklama dinamikasini ta’minlash, vosita va metodlarni maqsadga muvofiq ravishda qo’llash sportchiga pedagogik ta’sir ko’rsatishni, organizmni qayta tiklash jarayoni bilan qo’shish natijasida kerak bo’ladi. Jismoniy sifatlarni va qobiliyat-larini rivojlantirishiga qaratiladi.

5.2.1. Mashg‘ulot mezosikllarning tiplari.

Ko‘pincha tortuvchi, bazali tayyorgarlik nazorat, musobaqa oldi va musobaqa mezosikllari bo’ladi.

Tortuvchi mezosikllarni - asosiy vazifasi sportchini, maxsus mashg‘ulot ishlарини samaradorliroq bajarilishiga asta-skin kiritilishidan iboratdir. By esa mashqlarni ishlatish bilan imkoniyatlarni oxiriga qaratilgan tizim va mehanizmlarni darajasini aniqlovchi har xil chidamlik turlarini rivoj-lantirish imkoniyatlari tezkor - kuchlilik va zgiluvchanlik sifatlarini tanlab takomillashtirish. Oxirgi xisobda ishning samaradorligini oxiriga qaratiladigan xarakat ko‘nikmalari va malakalarini tashkil toptirishdan iboratdir.

Bazali mezosikllarga - organizmni asosiy tizimlarni funksional imkoniyatlarini ko’tarib, jismoniy sifatlarini tarbiyalash, texnika-taktika, va psixologik tayyorgarlikni takomil-lashtiriladi.

Mashg‘ulot dasturi - har xil bajarilishi bo'yicha shiddatli mashg‘ulotlardan katta Yuklamalardan foydalangan xolda tuziladi,

Tayyogarlik nazorati - mezosikllarda sportchini oldingi mezosikllarda erishgan imkoniyatlari sintez qilinadi yoki integral tayyogarlik amalga oshiriladi. Mashg‘ulot jarayonida ko‘pincha musobaqa va maxsus tayyogarlik mashqlarini musobaka sharoitiga maksimal ravishda yakinlashtiriladi.

Musobaqa oldi mezosikllari - sportchini tayyorlash jarayonidagi xatolarni yo‘qotishga texnik imkoniyatlarini takomillashtirishga

qaratilgan. Bu mezosikllarda asosiy o'rinni maqsadga muvofiq ravishda psixologik va taktik tayyorgarlik tashkil qiladi. Mezosikl Yuklamali va Yuklamaning kamayishi bilan tuzilishi, bu esa o'z vaqtida adaptatsiya jarayonini, charchashga qarshi turishini samaradarok bajarishga olib keladi,

Musobaqa mezosikllarini soni va tuzilishi sport turini, sport taqvimini xususiyati, sportchining malakasi va tayyorgarlik darajasi bilan aniqlanadi. Siklik xarakterdagi sport turlarida, asosiy musobaqalar ko'pincha 1 oydan 2 oygacha davom etadi, bunda bir yoki ikkita musobaqa mezosikli ishlataladi, sport o'yinlarida asosiy musobaqalar 6 - 10 oy davom etadi. Bu vaqt ichida 5 - 6 ta musobaqa mezosikli boshqa mezosikllar bilan almashtirilgan holda o'tkazilishi mumkin.

Mikrosikl va mezosikllarni qo'shib olib borish - mezo-siklni oldiga qo'yilgan vazifasiga qarab, uning ichiga vositalari va yo'nalishi bo'yicha,

- tayyorgarlikni ayrim tomonlarini:
- integral tayyorgarligini amalga oshirishni:
- katta Yuklamadan keyin o'tadigan adaptatsiya jarayonini tiklanishiga sharoit yaratishni o'z ichiga oladigan mikrosikllar kiradi.

Mikrosikllar ichida ko'rganimizdek organizmning funksi-onal imkoniyatlari tiklanishi bir necha kungacha davom etishi mum-kin edi. Uning uchun keyingi mikrosikl oldingi Yuklamadan qolgan charchashning hisobiga organizmni qayta tiklashga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Malakali sportchilarini hozirgi kundagi mashg'ulotlaridagi qizg'in payti alohida mikrosikllar Yuklamani kutilishi orqali bir mikrosikldan 2 - mikrosiklga charchashni ortib borishi bilan xarakterlanadi.

Bu esa, organizmni funksional tizimiga va texnikani mustahkamligiga yuqori talab qo'yadi. Mikrosikllardagi Yuklamani umumiyligi summasi ko'p yillik tayyorgarlik davriga bog'liq. Ko'p yillik tayyorgarlikda, bazali mikrosikllar ichidagi xafthalik mikro-sikllar Yuklamasini umumiyligi summasini birlashishi amalga oshiri-ladi.

Mikrosikllarni har xil tiplari ularning Yuklamasini umumiyligi summasini ko'p xususiyatlarini ham mezosiklni tipi bilan aniqlanadi haftalik mikrosikllarni umumiyligi summasini har xil mezosikllar tipida birlashtirish yuqori klassifikatsiyali sportchilar tayyorgarligi uchun

ham qo'llaniladi (Platonova V.N.)

5.3. Makrosikllarda mashg'ulotlar jarayonining tuzish metodikasi

Makrosikllarning umumiy strukturasi va turlari.

Mashg'ulot makrosikllarining tuzish metodikasi birinchi navbatda mashg'ulotda qo'yilgan asosiy vazifaga bog'liq bo'lib, bu vazifani mashg'ulot jarayonida bajariladi. Ko'p yillik tayyorgarlikning birinchi bosqichida (bu bosqichning asosiy vazifasi har tomonlama gormonik jismoniy rivojlanish asosida samaradoroq tayyorgarlik uchun texnik va funksional (ko'nikma va malakalarni) tuzish mashg'ulot makrosikllarining tuzilishi sportchi o'zini individual imkoniyatlarini maksimal ravishda amalga oshirish bosqichida tuziladigan makrosikllardan prinsip jihatidan farq qiladi. Ko'p yillik tayyorgarlikning 1 - 2 bosqichlarida mashg'ulot jarayonini yillik makrosikllar asosida tuziladi. Bunda sportchi tayyorgarligining hamma tomoni paralel rivojlantiriladi. Ayrim xollardagina (qachonki tayyorgarlikning malum bir tomo-nini takomillashtirishga etibor berilish kerak bo'lganda, yaqqol ko'rinish to'rgan kamchiliklarni tuzatganda) sportchining texnik, taktik, jismoniy psixik tayyorgarligining vazifalari hal etiladi.

Keyinchalik qachonki yuqori sport ko'rsatkichlariga erishish uchun va musobaqalarda yaxshi qatnashish uchun sportchilarga o'zlari-ning individual imkoniyatlarini maksimal holda ishlatalish vazifa-si qo'yilganda mashg'ulotlar makrostrukturalari ancha murakkab (har bir xolatda konkret aniqlashgan) xarakterda bo'ladi.

Mikrosikllarning davom etishi va tuzilishi ko'pgina fakt-orlar bilan belgilanadi. Bu faktorlar ichida birinchi navbatda sport turining maxsus xususiyatlarini va sport mahoratini tashkil etuvchi asosiy qonuniyatlarini: sportchining aniq musobaqalarga (masalan, Evropa, dunyo olimpiya birinchiliklariga) tayyoragarlik ko'rishi zarurligini: sportchining individual adaptatsiya qilish imkoniyatlarini, tayyorgarlik strukturasini, o'tilgan mashg'ulot mazmunlarini aytib o'tish kerak.

Mashg'ulotning makrostrukturasida har xil makrosikllar ajralib

chiqadi. Bu makrosikllar (to‘lqinsimon bo‘lib) goh pasayib goh ko‘tarilib bir necha oydan 4 yilgacha davom etishi mumkin.

4 yillik makrosikllar olimpiada o‘yinlariga rejali ravish-da tayyorgarlik ko‘rishni tashkil etish uchun tuziladi. Bunday holda makrosiklning har bir yillik bosqichining mazmuni va vazifasi orqali vazifalarning bajarilishiga qaratilgan.

Sport musobaqlari taqvimini doimiy ravishda kengayib borishi 3-4 ta makrosikllarnish kelib chiqishiga olib keldi. Bu musobaqa taqvimiga ko‘pgina xal qiluvchi musobaqlar bo‘lib ularni o‘tkazish vaqtি ko‘rsatilgan. Sport musobaqalarinn tabora ko‘payib borishi sport tayyorgarligi uchun material bazasini yaxshilashga olib keldi.

Manej, voletrek, qishki stadionlar, ko‘pgina suv xavzalari ning qurilishlari paydo bo‘lishi ko‘pgina sport turlarini yilning faqatgina malum vaqtida - mavsumda o‘tkazilishidan xolos etdi. Mana Shunday qilib velosportda (trek), engil atletikada 2 ta yillik makrosikl, suzishda 2-3 ta yillik makrosikllar kelib chiqdi.

Shuning bilan birga yuqori ko‘rsatkichlarga erishish uchun uzoq va keskin musobaqa faoliyatini va Shuningdek tayyorlanish uchun uzoq vaqtini talab etuvchi sport tu’rlarida (velosportda shosse, marofon) 1 ta yillik makrosiklni saqlash talab etiladi. Ayrim sport turlarida 2 yillik sikllar rejalashtirishi mumkin. Bu yangi va o‘rta mukammal dasturlarni o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq (figurali uchishda, sport gimnastikasida konki uchishda), lekin bunday sikllarnint har xil bosqichlarida sportchilar eski dastur bo‘yicha musobaqlarda ishtirot etishi mumkin. (N.Ozolin, 1984 y)

Sport o‘yinlarida kalendarning o‘ziga xos xususiyatlari yil mobaynida mashg‘ulotlarning qay tarzda o‘tilishini kerakligini malum qilib qo‘ydi, yillik mikrosikllar bilan bir qatorda (futbol, xokkeyda) yarim yillik mashg‘ulot makrosikllari xam mavjuddir (basketbolda, suv polosida).

Mashg‘ulotlarni yillik makrosikllar asosida tuzish chang‘i uchish, biatlon, tog‘ chang‘isi, bobsley, elkanli sport, eshkak eshish kabi sport turlari uchun xarakterlidir.

Yillik mashg‘ulotni 1 ta makrosikl asosida tuzilsa 1 siklli, 2 ta makrosikl asosida tuzilsa 2 siklli, 3 ta makrosikl asosida tuzilsa 3 siklli mashg‘ulotlar deyiladi. Har bir makrosiklda uchta: tayyorgarlik, musoboqa va o‘tish davrlariga bo‘linadi.

Mashg‘ulot jarayonini 2 va Z siklli tuzishdan «ikkilangan» va «uchlangan» deb ataladigan variantlardan ko‘proq foydalani-ladi. Bunday xolatlarda 1 va 2; 2 va 3 makrosikllar orasidagi o‘tish davri rejalashtirilmaydi. Oldingi makrosiklning musobaqa davri eca navbatdagi makrosiklning tayyorlovchi davriga o‘tadi. (V.N.Plotonov 1986 y)

Agar bir yilda 2 ta yoki undan ko‘p makrosikllar rejalash-tirilsa ular bir - birlaridan mazmuni va davomiyligi jihatidan yil mobaynida mashg‘ulot jarayonini tuzish varianti bilan ajraladi.

Masalan: yuqori klassli sportchilarni tayyorgarligining 3 siklini rejalashtirishda 1-mikrosikl baza hosil qilish xarak-terida bo‘ladi, yani sportchilar tayyorgarligining kompleks ravishda bo‘lishi, va asosiy musobaqalarga nisbatan past musobaqlarda qatnashishlarini nazarda tutadi. 2-mikrosiklda mashg‘ulot jarayoni ko‘proq mutaxassislikka yaqinlashtirib yilning asosiy musobaqalarida qatnashishga qaratilgan bo‘ladi. 3-mikrosiklda eng yuqori ko‘rsatgichlarga erishish maqsad qilib qo‘yiladi. Mashg‘ulot musobaqa Yuklamalari maksimal kattalikgacha etkaziladi.

Tayyorgarlik davrida asosiy musobaqlarda yaxshi qatnashish uchun mustahkam funksional baza quriladi, tayyorgarlikni har xil tomonlari rivojlantiriladi va davr ikki bosqichga bo‘linadi: umum tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik bosqichlariga.

Musobaqa davrida - tayyorgarlikning har xil tomonlari yanada rivojlantiriladi va integral tayyorgarlik taminlanadi. Bu davrda musobaqalar o‘tkaziladi va Shu musobaqalar yordamida keyingi asosiy musobaqalarga tayyorgarlik boradi,

O‘tish davri - mashg‘ulot va musobaqa davridagi Yuklamalardan so‘ng navbatdagi makrosiklga tayyorgarlik uchun jismoniy va psixik potensiallarni tiklashga qaratilgan.

Tayyorgarlikni bosqichlargi va davrlarni davomiyligi va mazmunlari alohida makrosikl me’yorida (mobaynida) ko‘pgina faktorlar bilan aniqlanadi.

Bu omillardan biri sport turining maxsusligi bilan bog‘liq;

- musobaqa faoliyati, Shu sport turi musobaka tizimini taqoza etgan sportchilar tayyorgarligining tuzilishi bilan;

- boshqa omillar ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlari har xil sifatlarni rivojlantirish qonuniyatları bilan;

- sport musobaqasi taqvimi, musobaqa oldidan sportchilarga qo‘yiladigan vazifalar bilan;

-sportchilarni individual, morfologik va funksional xususiyatlari, mashg‘ulot xususiyatlari individual sport taqvimi bilan: tayyorgarlikni tashkil qilish (markazlashtirilgan) tayyorgarlik yoki ma‘lum joylar sharoitida iqlim sharoiti, texnik saviyasi va boshqalar bilan bog‘liqdir.

Bu faktorlarning har xilligi mashg‘ulot jarayoni yo‘nali-shining makrosikllar, davrlar, bosqichlar va ularni kichik tashkil etuvchilarini tuzilishlarini belgilaydi.

N.G.Ozolin Shunday deb yozadi: mashg‘ulot jarayoni mazmunini yo‘nalishi davrlarini aniqlaydi. Mashg‘ulot jarayonini davr va bosqichlarga, mashg‘ulot jarayonini rejalashtirishga tayyorgarlik mazmunining vazifasi va vaqt bo‘yicha effektiv joylashtirishga (rasmiylashtirishga) yordam beradi,

Makrosikllar tuzilishini aniqlovchi ko‘pgina faktorlar va ularning oxirgi ko‘rsatgichiga erishishdagi tutgan o‘rinlari makrosikllarda mashg‘ulot jarayoni tuzilishini xaddan tashqari murakkablashtiradi.

Masalan; mashg‘ulot jarayonini moslashishlar tuzish qonuniyatları asosida tuzishga intilish, faqatgina sport mashg‘ulotini anik vazifalari xal qilingandagina etarli natija ko‘rsatadi deb hisoblardi. Mashg‘ulot makrosikllarini tuzish asosida etgan sport mashg‘uloti umum qonuniyatlariga bunday yondoshish, ko‘pgina sport turlarida mashg‘ulot jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan metodologik xato hisoblanadi. Mashg‘ulot Yuklamalarini ayrim mashg‘ulotlarda va makrosikllardagina bitta yo‘nalishda bo‘lishini ta’minlamasdan, salkam butun tayyorgarlik bosqichlari davomida ham mashg‘ulot Yuklamalari bir yo‘nalishda bo‘lishini ta’minalash kerak.

Bunday ko‘rsatmalar texnik - taktik harakat arsenallarini, psixologik vazifalarini chegaralagan holatda jismoniy tayyor-garligiga nisbatan past sport turlarida alohida qo‘llanishi mumkin, lekin siklik xarakterdagi o‘yinlarda, yakka bellaShuv-larda, murakkab koordinatsion sport turlarida qo‘llash to‘g‘ri kelmaydi.

Sport turi ko‘p yillik tayyorgarlikning bosqichlariga Shug‘ul-anuvchilar kontingentiga bog‘liq xolda makrosiklda turli davr va etaplar keng diapazon asosida tebranishi mumkin. Masalan; suzishda,

engil atletikada va boshqa sport turlarida siklik xarakterdagи sport turlarida musobaqa davrining davomiyligi (yoki ikki uch siklli rejalahtirilgan davrlarda) sport o‘yinla-ridagi musobaqa davriga nisbatan 1.5, 2.5 marta kam bo‘lishi mumkin. Yilning ma’lum vaqtidagina mavsumda o‘tkaziladigan sport turlari yil mobaynida o‘tkaziladgan sport turlaridan tayyorgarlik davrini uzoq muddatiligi musobaqa davrini qisqa muddatiligi bilan farq qiladi.

Ko‘p yillik tayyorgarlikni boshlang‘ich bosqichi, Shuningdek bazani tayyorgarlikni oldingi bosqichiga tayyorgarlik davrini uzoq muddatiligi bilan ajralib turadi. Musobaqa davri ancha qisqa va anik, ko‘rsatilmagan yuqori sinf sportchilarida buning tes-karisi bo‘lib, tayyorgarlik davri qisqartirilgan, musobaqa davri esa yilning ancha qismini egallaydi (V.N.Platonov) 1986 y.

VI-BOB. PARA SPORT TURLARIDA MASHG‘ULOTI DAVRLARINING XUSUSIYATLARI

6.1. Sport formasi taraqqiyotining fazoliligi mashg‘ulotni davrlashning tabiiy asosi ekanligi

Sport formasi. Sport formasi ko‘pjihatlidir. Maxsus ma’lumotlarni umumlashtirib, unga xos bo‘lgan belgilar kompleksini ko‘rsatish mumkin.

Fiziologik nuqtai nazaridan sport formasiga quyidagilar xosdir:

- sport formasida bo‘lmanan paytda mumkin bo‘lmanan yuk-sak funksional darajada spetsifik muskul ishini bajara olish qobiliyati, ya’ni sport formasi davrida organizm eng yuksak funksional darajaga ega bo‘ladi;

- funksiyalarni tejash, ya’ni nihoyat darajasiga etmagan standart ishlarni bajarishda (jumladan, energiya sarflashda) barcha ish jarayonlari mukammalroq koordinatsiya qilinishi hamda organizmning funksional imkoniyatlari yuksakroq bo‘lishi tufayli qator fiziologik o‘zgarishlarni kamaytirish;

Yuksak turg‘unlik va Shu bilan birga sport harakati malakalari dinamik steriotiplarining varinativligi (o‘zgaruv-chan sharoitlarga moslasha olishi);

Yuksak safarbarlik, ya’ni organizmning harakat faoliyati jarayoniga tezroq kirishib keta olishi va bir ishdan ikkinchi ishga tezroq o‘ta oladigan qobiliyatning mukammalroqligi, tiklanish jarayonlarining tezroq o‘tishi, sport formasi davrida ish samaraliroq bajarilishi bilan bir qatorda charchash holatidan keyin ish qobiliyati tezroq tiklanadigan bo‘ladi.

Sport formasi haqida psixologik tasavvurlar hozircha to‘la va etarli darajada konkret emas. Shunday bo‘lsada quyidagi belgilarni ko‘rsatish mumkin.

Tanlangan sport faoliyati sharoitlari bilan bog‘liq maxsus idrok etish qobiliyatining yaxshilanishi suzuvchilarda «suvni his etish» va hokazo);

Harakatlarni ongli ravishda boshqarish (harakat mala-kalarini maqsadga muvofiq ravishda avtomatlashtirish asosida) va sport taktika tafakkurining ijodiy namoyon bo‘lish imkoniyatlarining

yuksalishi;

Ioda kuchi diapazonining kengayishi (ham uzoq vaqt iloji boricha ioda kuchi sarflash imkoniyatlarining kengayshi, ham Shu imkoniyatlarning absolyut darajasi yuksalishi);

Musobaqlashishga va yutuqlarga erishishga qaratilgan alohida emotsiyal kayfiyat, sport formasi - kuch - quvvatiga qat'iy ishonishga asoslanib, eng zo'r jasorat ko'rsatish mumkin bo'lган davr.

Sport formasi pedagogik nuqtai nazardan qaraganda sportchining yutuqqa erishishga optimal tayyor ekani hamma tomonlarining - psixik, jismoniy, sport - texnik va taktik jihatdan tayyor ekanining - garmonik birligidan iboratdir.

Ana Shu komponentlarning barchasi mavjud bo'lsagina sportchi formada hisoblanadi. Sportchining jismoniy sifatlari qanchalik yuksak taraqqiy etgan bo'lmasin, uning texnikasi va taktikasi qanchalik takomillashgan bo'lmasin, agar u jiddiy musobaqaga psixik jihatdan tayyor bo'lmasa, agar unda Shu maqsadga qaratilgan tirishqoqlik yoki boshqa ioda sifatlari bo'lmasa, u hech qachon yuksak natija ko'rsata olmaydi. Xuddi Shu gaplar sport formasining boshqa barcha tomonlariga ham taaluqlidir. Shu bilan birga jismoniy fazilatlar va harakat malakalarining birligi, ya'ni bu fazilat va malakalarning o'zaro o'yg'unligi Shunday bo'lishi kerakki, unda sportchi tanlangan sport turida o'z jismoniy fazilatlarini ayni texnik va taktik malakalar formasida maksimal darajada namoyon etishga qodir bўilsin.

Yuqorida aytilganlarning hammasini har bir aniq sharoitning o'ziga qarab tadbiq etmoq kerak. Chunki optimal tayyorgarlik tushunchasi nisbiyidir. U sport formasi taraqqiyoti-ning faqat konkrekt sikli uchun to'g'ri bo'ladi. Sportda kamolatga erisha borgan sari optimum (eng yaxshi) daraja o'zgarib boradi - sport formasi sport kamolotining har bir bosqichida ham sifat jihatdan, ham miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha boshqacha bo'la boradi.

Sport formasini baholash uchun xilma - xil uslublardan foylanadilar. Shulardan asosiyalarini shartli ravishda pedagogik va tibbiy fiziologik uslublarga bo'lish mumkin.

Pedagogik uslublar sportchining sifatlari, malakalari va mahoratlarini umumlashtirib baholash asosida uning tayyorgarlik daraja-

sini aniqlaydi. Bunda sport musobaqalaridagi, ya’ni sport formasini baholashda hisobga olinishi kerak bo‘lgan real sport kurashi sharoitidagi sport natijalari eng umumiy mezon bo‘ladi. Bunday natijada sportchi tayyorgarlik darajasini barcha tomon-lari xuddi ko‘zguda ko‘rilgandek ravshan aks etadi. Agar sportchi o‘zining avvaligi shaxsiy rekordidan yuqori yoki o‘sha darajaga yaqin natija ko‘rsatsa, taxminan bo‘lsa ham, u sportchini formada ekan deb hisoblaydilar.

Biroq sport natijasi tayyor ekanlikning ayrim tomonlarini tanlab nazorat qilishga imkon bermaydi. Bundan tashqari sportning ayrim turlarida hozircha sport natijalarining etarli darajada ob’ektiv miqdor o‘lchovlari mavjud emas (gimnastika, yakkama - yakka oliShuv va boshqalar). Bular bari qo‘sishimcha xususiy mezonlar bo‘lishini talab etadi.

Shu maqsadda jismoniy, texnik - taktik tayyorgarlik bo‘yicha nazorat mashqlardan foydalilaniladi. Shuningdek, musobaqalar va mas’uliyatli chandalashlar sharoitida sportchining texnikasini, taktik harakatlarini va umuman o‘zini qanday tutishini kuzatish ham keng qo‘llaniлади. Tanlab baholash yana ham aniqroq bo‘lishi uchun tugal harakatlarni yoki hatto ularning ayrim elementlarini maxsus apparatlar, video tasma, siklografiya, dinamometriya, spidografiya va boshqalar) yordamida ham hisobga olinadi.

Sport formasini baholashning tibbiy - fiziologik uslub-lari organizmning harakat faoliyatini amalga oshiradigan hamda ta’min etadigan eng muhim tizimlari ish qobiliyatni aniqlashga qaratilgan. Buning uchun, jumladan, standart va maksimal spetsifik Yuklamalar bilan funksional sinovlardan foydala-niladi (sport medetsinasи va sport fiziologiyasi kursiga qarang).

Ham pedagogik, ham tibbiy - fiziologik ma'lumotlardan kompleks foydalanilgandagina sport formasiga to‘liq tavsif berish mumkin bo‘ladi. Bunda ayniqsa, tibbiy - fizilogik ma'lumotlar nihoyatda muhimdir. Biroq, sport formasini aniqlashda hal qiluvchi so‘z Shubhasiz murabbiyda qoladi.

Tadqiqotlar sport formasining taraqqiyot jarayoni fazali xarak-terga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu jarayon uch fazadan - formaga kirish, uni saqlash va sport formasini vaqtinchalik yo‘qotishdan iborat bo‘ladi.

Sport formasiga kirish fazasi sport formasi uchun zarur sharoit shakllanishi va taraqqiy etishidan hamda sport formasi bevosita tashkil topishdan iborat bo‘ladi.

Bunda gap avvalo organizmning funksional imkoniyatlari umumiy darajasini ancha yuksaltirish, sportchining jismoniy va iroda fazilatlarini har tomonlama rivojlantirish, xilma - xil harakat mahorati va malakalarini, Shu jumladan, tanlangan sport turining texnika - taktikasining yangi elementlarini shakl-lantirish haqida bormoqda. Bular bari qo‘silib sport formasining poydevorini barpo etadi. Sport formasining qay darajada bo‘lishi, binobarin mashg‘ulotning mazkur siklidagi sport natijalarining darjasini ham ana Shu poydevorning sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Biroq, bu vaqtda hali yutuq uchun hamma narsa tayyor bo‘lmaydi, organizmda eng muhim funksional o‘zgarishlar sodir bo‘lishi davom etadi.

Bunda ayrim jismoniy fazilatlar o‘rtasida, Shuningdek, harakat malakalari o‘rtasida bir - biriga salbiy ta’sir etish ham bo‘lishi mumkin. Bu sport formasining elementlari endigina paydo bo‘layotgan payt, ular bir-biriga «jipslashib», bir butun bo‘lib birlashib ketmagan bo‘ladi. Bu fazaning ikkinchi yarmi, ya’ni sport formasi bevosita shakllanayotgan vaktda moslashish jarayonlar ko‘proq, ixtisoslangan xarakter kasb etadi va ko‘cha-yotgandek bo‘ladi. Maxsus mashq bilan chiniqqanlikning ortishi ixtisoslanish uchun tanlangan sport turiga javob beradigan sifatlarining rivojlanishi va tegishli sport texnikasi va taktikasining chuqur mukammallashtirilishi barcha o‘zgarishlar-ning etakchi yo‘nalishi bo‘ladi. Sportda yutishga tayyor ekanlikni ta’minlaydigdn ayrim komponentlar birlashib, G‘OYAT darajada betartib yaxlit tizimni - sport formasini yaratadi.

Sport formasini fazasi sportda yutishga optimal (mazkur sikl uchun) tayyor ekanlikni saqlab borish bilan xarakterlanadi. Bu vaqtda sport mashg‘uloti bilan bog‘liq, bo‘lgan biologik o‘zgarishlarning davom etish darjasini (juda bo‘limganda katta yoshli sportchilarda) tushib ketishi o‘z-o‘zidan har qalay kamaya borsa kerak, chunki bu vaqtda yuksak darajadagi sport ko‘rsatkichlari nisbatan turg‘unlasha boradi.

Sport formasi davrida tub o‘zgarishlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, chunki ular sport formasini yo‘qotishga olib kelgan bo‘lar edi. Biroq,

bu bundan oldingi konstruktiv fazada qo‘lga kiritilgan imkoniyatlar va bu erda faqat ekspluatatsiya qilinadi, degan ma’noni bildirmaydi. Sport formasini saqlash fonida sport yutuqlariga erishish bevosita bog‘liq bo‘lgan hamma narsalarning yanada rivojlanishi davom etadi. Shuning uchun natijalar o‘sса boradi, biroq, bu o‘sish mazkur sport formasi darajasidan chiqmaydi.

Mashg‘ulot tuzilish xususiyatlari qarab, sport formasini saqlab turishning turli usullarini ifodalovchi sport natijalari bir yillik dinamikasining tiplari turlicha bo‘ladi. Bular quyidagilardan iborat: «cho‘qqilar» orasida uncha uzoq, davom etmaydigan 4-b xtaftaga boradigan pasayishlar bor «bir cho‘qqilik», «qo‘sh cho‘qqilik». Bular ko‘p turli xollarning barchasini qamrab olmaydigan faqat asosiy, qancha keng tarqalgan variantlar, xolos. Bundan tashqari sportning ayrim turlari (masalan, og‘ir atletika) uchun oralig‘i 3 oydan ortiq pasayishga ega bo‘lgan «qo‘sh cho‘qqilik» dinamika, tipikdir.

Sport formasini saqlab turish muddatlarini aniq belgilash ancha qiyin ish. Sportning ayrim turlaridagi sport natijalari dinamikasini statistik analiz qilish asosida taxminan Shuni aytish mumkinki, yuqori malakali sportchilarda bu muddat odatda «bir cho‘qqilik» dinamikada 2-3 oyga yaqin, «qo‘sh cho‘qqilik» esa, jamlab hisoblangs, 4-4,5 oyga boradi. Cho‘qqilar orasidagi nisbatan uncha uzoq, davom etmaydigan pasayish-lar, aftidan, alohida oralig momentlar sifatida sport formasini saqlab turish davriga kiritilishi to‘g‘ri bo‘lsa kerak. Bu paytda sport formasining asosiy tarkibiy qismlari yo‘qolmasa kerak; faqat spetsifik funksional kayfiyat bir oz pasayishi mumkin. Ko‘rsatilgan muddatlarni tibbiy - fiziolo-gik ma'lumotlari xam qisman tasdiqlaydi (S.P.Letunov va boshqalar).

Sport formasini saqlab turishning qaysi varianti yaxshiroq ekanini aytish hozircha qiyin. Ko‘p narsa, Shubxasiz, sport turlarining xususiyatlari bog‘liq. Yana Shu narsa xam ma'lumki, «qo‘sh cho‘qqilik» variantlarda mashg‘ulotlarning musobaqa davrini uzaytirish imkonи paydo bo‘ladi. Mazkur variantlar ham, aslini olganda, ana Shunday zaruriyat orqasida paydo bo‘lgan.

Sport formasini vaqtincha yo‘qotish fazasida mashq bilan chiniqqanlikni ma'lum tomonlari readaptatsion pasayadi, sport formasining ayrim elementlarini birlashtirib to‘rgan aloqalar so‘na

boradi va organizm boshqacha darajada ishlashga o‘ta boradi.

Sport formasining yo‘qotilishi organizm xayotiy funksiya-larining tushkunligi emas. Umumiy rejim va mashg‘ulotni ratsional tashkil etilsa, odatdagi xayot faoliyati saqlanadi va yanada yaxshilanadi - bu maxsus tadqiqotlarda tasdiqlangan (V.P.Filin, L.P.Matveev, E.V.Kukolevskaya, E.E.Nemova). Bu vaqtida organizmda avvalgi Yuklamalar xamda kundalik mashg‘ulotlar natijasida ba’zi bir ijobiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi davom etadi. Aftidan, bu vaqtida avvalgi Yuklama-lar tufayli eng uzoq, davom etadigan o‘zgarishlar nihoyasiga etadi, plastik almashinish jarayonlarida ba’zi bir assimiliyasiya momentlari kuchayadi.

1. Sport - mashg‘uloti uzlusiz suratda kamolotga erishib borishga qaratilgan. Sport takomilining u yoki bu bosqichida qo‘lga kiritiladigan sport formasi esa xuddi ana Shu bosqich (va faqat Shu bosqich) uchun optimal holatdir. Birok sport mahoratining bir bosqichi uchun optimal bo‘lgan holatdan keyingi, yana ham yuksakroq bosqichi uchun optimal bo‘la olmaydi. Shu sababdan bir marta qo‘lga kiritilgan sport formasini har doim saqlab turishga intilish - bir joyda qimirlamay turib qolish istagi bilan baravardir. Oldinga siljish uchun eski formani «tashlab», yangi formaga kirish kerak. YAngi formaga kirish uchun, anchagina o‘zgarishlar qilish, jismoniy sifatlar salmoqli va har tomonlama rivojlanishini ta’minalash, yangi, yana ham takomillashgan mahorat va malakalarni orttirish qisqasi, sportcha tayyor ekanlikning barcha tomonlarini uning asoslari nisbatan stabillashadigan forma saqlab turish davrida mumkin bo‘lganiga qaraganda anchagina ko‘p o‘zgartirish va yaxshilash kerak.

2. Mashg‘ulot - Yuklamalari faqat yaqindayok effekt beribgina qolmay, balki uzoq muddat qo‘llanilgan Yuklamalar ta’siri bir-biriga qo‘shilib borishi bilan bog‘liq bo‘lgan kumuklyativ effekt ham beradi. Yuklamadar effektining sport formasiga kira borishi va uni saqlab turish bilan bog‘liq kumulyasiyasi sababli organizmda ertami yoki kechmi (bu yuklmalarning absolyut miqdoriga va boshqa holatlarga bog‘liq) adaptatsioi mexanizmlar-ning xaddan tashqari zo‘riqib ketishiga qarshi qo‘riqlovchi reaksiya paydo bo‘lsa kerak. Agar Yuklamani olib tashlash, boshqa holatga o‘tish, faol dam olish uchun sharoit yaratilmasa, unda Yuklama-lar o‘ta mashq bilan

chiniqqanlikka olib keladigan stressorlar xizmatini o‘taydigan bo‘lib qolishlari mumkin.

3. Sport formasining negizida yotgan - turli biologik funksiya va jarayonlar o‘rtasidagi murakkab dinamik muvozanat saqlashning o‘zi ham sportchi tizimi uchun juda og‘irdir. Bu vazifa yana Shu bilan murakkablashadiki, uni organizmning tinmay o‘zgarib turadigan tashqi va ichki muhiti fonida va turli adaptatsioi jarayonlar o‘rtasidagi nihoyatda nozik aloqalar sharoitida xal etishga to‘g‘ri keladi.

Shunday qilib, sport formasini saqlab turish ko‘pgina tashki hamda ichki qiyinchiliklar bilan borlik. Agar sport formasini haddan tashqari uzoq muddat saqlab turishga harakat qilinsa, ular ortiqchalik qilib ketishi va unda ko‘ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin. Biroq, aslini olganda, bunday qilish uchun hech qanday zarurat ham yo‘k. Aksincha, formaga bir kirib olgancha uni o‘zgartirmaslik yangi forma rivojlanishiga to‘sinqinlik qilgan ya’ni bundan keyingi jarayon yo‘lida tormozlik qilgan bo‘lur edi. Demak, sport formasining vaqtincha yo‘qotilishi fazasi, sport takomili jarayonidagi alohida fazadir.

Shunday qilib, sport bilay Shug‘ullanish jarayonida sportchi hamisha formada bo‘la olmaydi. U vaqt - vaqt bilan sport formasiga kirib, uni ozmi-ko‘pmi saqlab turadi va so‘ngra vaqtincha yo‘qotadi. Ma’lum sharoitlarda bu fazalar tobora yuksak, asosda muntazam suratda qayta - qayta almashinib turadi. Murabbiy bilan sportchi agar ular ishning muvaf-faqiyatli bo‘lishini istasalar, yuqorida sanab o‘tilgan fazalarni «bekor» qila olmaydilar. Biroq, sport formasini rivojlan-tirishning ob‘ektiv qonunlarini bilib olgach, bu jarayonni boshqarish mumkin.

Sport formasining tashkil topishi, saqlab turilishi va vaqtincha yo‘qotilishi nihoyatda aniq, mashg‘ulotlar ta’siri natijasida ro‘y beradi. Sport formasining taraqqiyot fazasiga qarab ularning xarakteri o‘zgarib turadi. Shunga muvofiq mashg‘ulot jarayoni uch davrga bo‘linadi:

1) sport formasiga kira borish uchun zarur sabab va sharoitlar yaratiladigan davr (fundamental davri);

2) sport formasini saqlab turiladigan va uni sport yutuqlariga aylantiradigan davr (shaxsiy musobaqalar davri);

3) zaruriyat tufayli sportchiga faol dam olishga imkon beriladigan davr. Bu davr mashg‘ulotning kumulyativ effekti o‘ta mashq bilan chiniqqanlik o‘tib ketishi oldini oladi va Shu bilan birga sport takomilining ikki bosqichi o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi (o‘tish davri).

Bu davrlar faqat sportchi biologik sabablar bilan hamisha sport formasida bo‘la olmasligi uchungina emas, balki mashg‘ulotlarning tuzulishi va mazmunini muntazam o‘zgar-tirib turish - sportda kamolotga erishishning zarur ob‘ektiv sharti bo‘lgani uchun ham paydo bo‘ladi.

Mashg‘ulot davrlari bilan sport formasining rivoj-lanish fazalari o‘rtasidagi mustahkam aloqani ta’kidlash bilan birga, ularni aslo bir-biriga tenglashtirmaslik kerak. Sport formasining rivojlanish fazalari - bu **biologik** asosdagi jarayonning birin - ketin keladigan momentlari (stadiyalardir; ular sportchi organizmida mashg‘ulotning va boshqa omil-larning ta’siri ostida ro‘y beradigan fiziologik, bioximik va morfologik o‘zgarishlarning bosqichlaridir. Mashg‘ulot davrlari esa, o‘z mohiyati jixatidan **pedagogik** jarayonning birin - ketin keladigan stadiyalardir; ular sportchining o‘sishiga maqsadga muvofiq. ta’sir ko‘rsatadigan ma’lum vosita va metodlardan unumli foydalanish bilan xarakterlanadi. Demak, mashg‘ulot davrlari - sport formasini rivojlantirishni boshqarish jarayonining birin - ketin keladigan stadiyalardir.

Mashg‘ulot siklidagi davrlarning miqdori va davomiyligi aslida sport formasini o‘stirish fazalarining miqdori va davomiyligi mos kelishi kerak. Biroq hamisha Shunday bo‘lavermaydi. Bunga ikkinchi darajali narsalar sabab bo‘lishi mumkin. Boshqa xodisalar bo‘lishi ham mumkin. Misol uchun sport formasi rivojlanishi ikkita siklini o‘z ichiga olgan beshta mashg‘ulot davridan iborat «ikkilangan» mashg‘ulot siklini ko‘rib chiqamiz. Bunda davrlardan birining fonida sport mashg‘ulotning tarkibiy qismlarini, jumladan Yuklamalar hajmini va intensivligini o‘zgartirish yo‘li bilan sport formasining rivojlanish fazasini qisqartish yoki cho‘zish mumkin. Biroq bunda o‘zboshimchalik bo‘imasligi kerak. Bu fazalarni cheksiz suratda uzaytirish ham, bexad qisqartirish ham mumkin emas, chunki ularning muddatlari ko‘p jihatdan organizm rivojlanishi ichki qonuniyatlar bilan belgilanadi va bir qator konkret sharoitlarga

(sportchining oldindan tayyorlik darajasiga, sport turlarinint xususiyatlari va hokazolarga) bog'liq bo'ladi fundamental davri aslida sport formasiga kirish uchun mazkur konkret sharoitda zarur bo'lgan vaqtdan qisqa bo'lishi mumkin emas. Musobaqa davri sport formasini keyingi progressga xalal bermagan holda saqlab turish imkoniyatlari yo'l qo'yganidan uzun bo'lishi mumkin emas. O'tish davrining muddatlari birinchi galda avvalgi Yuklamalarning jamlangan miqdori hamda kuch - quvvatni tiklab olish jarayonining qancha davom etishiga bog'liq.

Mashg'ulot siklining umumiy uzunligini ko'pincha taqvim yili bilan belgilaydilar. Tajriba va maxsus tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'p hollarda sport natijalarini o'stirishni ta'minlash uchun mazkur muddat to'la etarlidir. Shu bilan birga sportning ayrim turlarida (og'ir atletika, engil atleti-kaning tezkor - kuchlilik turlarida, suzishdagi, spirinter masofalarida va aftidan, sportining Shu xarakterdagи boshqa turlarida ham) sport formasini faqat bir yilda emas, hatto yarim yilda ham yangilash mumkinligi aniqlangan. Sportning bunday turlari uchun bir yillik hamda yarim yillik (yoki «ikkilangan») mashg'ulot sikllaridan, ularni ma'lum tartibda bir - biri bilan almashtirib, foydalanish maqsadga muvofikdir.

Har jihatdan qaraganda, yarim yillikdan kam bo'lgan sikllar sport formasini yangilash uchun doimiy asos bo'la olmaydi. Bir yillikdan ortiq; muddatli sikllar ba'zi xolarda ma'qulroq, bo'lib chiqishi xam mumkin.

Malakali sportchilar uchun davrlarning tahminan quyidagi muddatlarini belgilash mumkin:

Fundamental davri 3,5-4 oydan (bu yarim yillik va «ikkilangan» mashg'ulot sikllari uchun xarakterlidir) 5-7 oygacha (bir yillik sikllarda);

Musobaqalar davri - 1,5-2 oydan (yarim yillik va «ikkilangan» siklda) 4-5 oygacha (bir yillik siklda); o'tish davri 3-4 haftadan (yarim yillik siklda) 6 xaftagacha (bir yillik va «ikkilangan» sikllarda). Aftidan, juda ko'p sport turlari uchun davrlarning ratsional muddatlari ana Shu chegaralarda bo'lishi mumkin. Bunda sportning bir xil turlari uchun ko'rsatilgan' muddatlarning to'la diapazoni, boshqa turlari uchun esa faqat ayrim muddatlargina to'g'ri keladi.

Mashg'ulot davrlarining uzunligi sport bilan ko'p yillar davomida

Shug‘ullanish jarayonida o‘zgarmas bo‘lib qolmaydi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan raqamlar barchaga baravar to‘g‘ri kelavermaydi. Ular asosan nisbatan yaxshi mashq, ko‘rgan, shakllanib bo‘lgan, o‘sса borayotgan sportchilarga taalluqlidir. Mashq bilan chiniqqanlik qancha kam va mashg‘ulotda qo‘llanila-digan - Yuklamalar darajasi qancha past bo‘lsa, muddatlardagi farq ham Shuncha ko‘p 60‘ladi.

6.2. Tayyorlov davrining ikkinchi (maxsus tayyorgarlik) bosqichi

Mashg‘ulot bevosita nimagadir qaratilganligining o‘zgarishi.

Tayyorlov davrining ikkinchi bosqichida mashg‘ulotning tuzilishi va mazmuni sport formasiga bevosita kirib borish uchun sharoit yaratadigan bo‘lib o‘zgaradi. Tayyorgarlik o‘zining barcha bo‘limlaridan ko‘proq maxsus maqsadga qaratila boshlaydi (Shuning uchun xam maxsus tayyorgarlik bosqichi deb ataladi).

Jismoniy tayyorgarlikda tanlangan sport turining spetsifik talablarigi javob bera oladigan jismoniy qobiliyat-larni rivojlantirishga qaratilgan ta’sir etish, ya’ni maxsus jismoniy tayyorgarlik kuchayadi. Endi umumiy jismoniy tayyor-garlik asosan umumiy mashq saqlab turishni ta’minlaydi va uning maxsus mashq bilan chiniqqanlik bilan eng mustahkam aloqada bo‘lgan komponentlarini yuksaltiradi.

Boshqa bo‘limlarda ham Shunga o‘xshash o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Sport - texnika tayyorgarligi musobaqa harakatlari texnikasini mazkur mashg‘ulot siklining musobaqa davomiда qanday bo‘lsa, o‘shanday ko‘rinishda chuqurroq o‘zlashtirib olishga qaratiladi. Bunda turg‘un va Shu bilan birga moslashuvchan harakatlar dinamik stereotipini shakllantirish markaziy vazifa bo‘lib qoladi. Parallel ravishda jiddiy maxsus taktik tayyor-garlik ham kengaytirib boriladi.

Nihoyat, ikkinchi bosqichga yaqinlashgan sayin tanlanagan sport turi bo‘yicha musobaqalarga maxsus iroda tayyorgarligining roli orta boradi.

Bular bari maxsus mashq bilan chiniqqanlikni yuksaltirish va sport formasining barcha komponentlarini garmonik tarzda qo‘shib olib borish uchun sharoit yaratadi. Ikkinci bosqichda jismoniy

texnik, taktik va iroda tayyorgarliklari o‘zaro alohida -alohida bo‘ladi - ular hatto birlashib (qo‘shilib) ketadi.

Birinchi bosqichda ikkinchi bosqichga o‘tish asta - sekinlik bilan sodir bo‘ladi. Bunda mashg‘ulot jarayonining mazmunidan ham ko‘ra uning tuzilishi - turli vosita va uslublarning nisbati, umumiy va maxsus tayyorgarlikning salmog‘i, Yuklamalar hajmi va intensivligining o‘zaro nisbati va hokazolar ko‘proq o‘zgaradi.

6.3. Musobaqa davrining strukturasি

Musobaqa davrining strukturasi oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. Birinchi holda u asosiy bir turdagи mikrosikllardan -musobaqa va Yuklama tashlash mikrosikllaridan iborat bo‘ladi. Ikkinci holda esa, 4 - 6 haftalik maxsus oraliq bosqich bilan bir-biridan ajralgan ikkita (ba’zan undan ham ko‘p) musobaqa bosqichlaridan iborat bo‘ladi.

Uyoki bustrukturadan foydalanish sport turlarining xususiyatlariga, mazkur sport turida qabul qilingan musobaqlar taqvimiga va boshqa sharoitlarga bog‘liq, bunda boshqa hamma sharoitlar teng bo‘lsa, davrning uzunligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi: oddiy struktura nisbatan uncha uzoq davom etmaydigan davrga (2 - 3 oygacha), murakkab struktura esa uzoq davrga (4-5 oylar chamasи) to‘g‘ri keladi.

6.4. O‘tish davri

O‘tish davri uzluksiz mashg‘ulot sistemasida g‘oyat o‘ziga xos bir zvenodir. Bunda asosiy mashg‘ulotlar faol dam olish xarakteriga ega bo‘ladi. Shu bilan birga bu mashg‘ulot pauzasi ham, ya’ni mashg‘ulot jarayonidagi tanaffus ham emas. Mashg‘ulot davom eta-veradi, lekin uning formalari va mazmuni anchagina o‘zgaradi. Mazkur davr mashg‘ulot kumulyativ effektining o‘ta mashq bilan chiniqqanlikka aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikni, organizmning funksional va adaptatsion imkoniyatlariga oshirilgan talablar qo‘yishdan holi rejimga etarli darajada uzoq o‘tishni ta’min etish uchun kiritiladi. Shu bilan birga mazkur vaqtida mashq bilan chiniq-

qanlikni ma'lum darajada saqlab qolish uchun sharoit yaratilishi va Shu yo'l bilan sport formasini rivojlantirishning ikki sikli o'rtaсидаги alo-qadorlik ta'minlanishi zarur. Albatta, faol dam olish sharoitida mashq bilan chiniqqanlikni maksimum darajada saqlashning iloji yo'q, biroq mashg'ulotning yangi siklini avvalgiga qaraganda ancha yuqori dastlabki pozitsiyada boshlashga imkon beradigan mashq bilan chiniqqanlikni saqlab qolish mumkin va zarurdir.

Jismoniy tayyorgarlik o'tish davrida ilgari qo'lga kiritilgan funksional va morfologik o'zgarishlarning mustah-kamlanishini ta'minlaydi, ayrim jismoniy fazilatlarni qisman takomillashtiradi, moslashuv imkoniyatlarini tiklab olishga ko'maklashadi. Bular bari mashg'ulotni oshirilgan Yuklamalar bilan davom ettirish uchun shart-sharoit yaratadi. O'tish davridan texnik va taktik tayyor ekanlikdagi ayrim kamchiliklarni yo'qotish uchun ham foydalaniladi. Birmuncha yangi harakat formalarini o'zlashtirib olish ham mumkin (yordamchi xarakterdagi mashqlarda). Biroq bularning hammasi mazkur davrning asosiy vazifasiga -faol dam olishga xalaqit bermasagina to'g'ri bo'ladi. O'tish davri mobaynida mashg'ulotlarda va musobaqlarda ishtirok etib orttirilgan tajribani chuqr tushunib etish, yanada takomil topishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish kerak. Nihoyat, ma'naviy iroda tayyorgarligi sohasida sportchining erishilgan yutuqlarga va bo'lishi mumkin mag'lubiyatlarga to'g'ri munosabatda bo'lishini ta'minlash, faol dam olish va keyingi rejalar uchun ijobjiy emotsiyonal holat yaratish g'oyat muhimdir.

O'tish davridagi mashg'ulotning xarakteri birinchi navbatda o'tgan davrlarda berilgan jamlangan yuklamalardan keyingi uzoq muddatli tiklash jarayonlarining qonuniyatlariga, Shuningdek, nisbatan Yuklama tashlash sharoitida mashq bilan chiniqqanlikni saqlab turish qonuniyatlariga bog'liqdir.

Ba'zi mutaxassislar o'tish davriga qarshi chiqib, uning funk-siyalarini mashg'ulot mikrosikllarida yuklama bilan dam olishni uzlusiz almashlab turish, Shuningdek, boshqa davrlar davomida Yuklamalar kattaligi bilan mashqlar xarakterini o'zgartirib turish bemalol o'tashi mumkin, deb da'vo qiladilar. Biroq, birinchidan, mashg'ulot yuklamalari faqat eng yaqin «iz» qold-iribgina qolmay, balki ma'lum sharoitlarda o'ta mashq bilan chiniqqanlikka aylanib ketadigan jamlangan (kumulyativ) deb atalgan effekt ham beradi.

Ikkinchidan, mashg'ulot jarayonida faqat ish qobiliyatini tiklab olish bilan cheklanib qolmay, balki organizmning adaptatsion imkoniyatlarini ham tiklash kerak. Bu esa mashg'ulotni faqat tayyorlov va musobaqa davrlaridagi singari tashkil etiladigan bo'lsa, har holda mumkin emas.

O'tish davrini mashq bilan chiniqqanlikni o'stirish sur'atlarini albatta sekinlashtirib qo'yadigan o'ziga xos bir zaruriyat deb qarash ham noto'g'ri bo'lur edi. Chunki o'tish davri ramkasida sport formasining vaqtincha yo'qotilishi keyingi o'sishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, hozircha kam o'rganilgan, lekin nihoyatda qiziqarli bo'lgan yana bir hodisaga, ya'ni nisbiy Yuklama tashlashdan keyin mashq bilan chiniqqanlikning rivojlanish sur'ati tezlashib ketishiga e'tibor berishimiz lozim. Bu turdag'i faktlarni laboratoriya tadqiqot-larida ham (B.S.Voronin), pedagogika eksperiment sharoitlarida ham (V.P.Filin, L.P.Matveev va boshqalar) kuzatilgan. Bular bari o'tish davrinining to'liq mashg'ulot siklidagi ajralmas bosqich ekani zarur qonuniyatligini ko'rsatadi.

6.5. Yuklamalar dinamikasining xususiyatlari.

Ikkinchisi bosqichda Yuklamalarning umumiy tendensiyasi jamlangan hajm-ning kamayishidan va intensivlikning tobora yuksalishidan iborat.

Bosqich davomida Yuklamalar hajmi bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha ancha sezilarli darajada (ayrim hollarda yarmisidan ko'proq) kamayishi mumkin. Bu, birinchidan, mashg'ulotning bundan keyingi taraqqiyoti uchun etakchi faktor bo'lgan intensivlikni ancha oshirishga sharoit yaratish zaruriyati bilan izohlanadi. Ikkinchidan, birinchi etapda bajarilgan katta hajmdagi tayyorlov ishlari natijasida «kechikuvchi transformatsiya» mexanizmi bo'yicha organizmda sodir bo'ladigan uzoq muddatli o'zgarishlarning o'tishini engillatish kerak bo'ladi. Faqart Yuklama umumiy hajmi-ni uzoq muddat etarli miqdorda kamaytirish va Shunga yarasha intensivlikni oshirish yo'li bilangina avvalgi ishlari natijasini sport ko'rsatkichlarining juda tez o'sishiga aylantirib yuborish mumkin. Hajmnning kamayish darajasi, albatta, uning oldingi bosqichdagi kattaligiga bog'liq. CHunki hajm

qancha katta bo'lsa, «kechikuvchi transformatsiya» muddatlari ham Shuncha uzoq bo'ladi.

Yuklamalar hajmining kamayishi dastlab umumiylar tayyorlov mashqlari hisobiga bo'ladi. Ko'pchilik maxsus - tayyorlov mashqlarining hajmi bir qancha vaqt mobaynida o'sib borishda davom etadi yoxud stabillasha boradi. Keyin Yuklamalar umumiylar hajmining bu komponenti ham asta - sekin kamaya boradi. Musobaqa mashqlari va ularga yaqin bo'lgan maxsus - tayyorlov mashqlari bundan istisnodir. Ularning bir oydag'i jamlangan hajmi ortib boradi.

Ikkinchisi bosqichda intensivlik asosan maxsus tayyorgarlik sohasida o'sadi. Mashqlar absolyut intensivligining tezlik, sur'at, qudrat va boshqa parametrlarining ortishi bilan birga mashg'ulotning nisbiy intensivligi ham yuksalib boradi. Biroq bu umumiylar jismoniy tayyorgarlikning anchagina qismiga taalluqli bo'lmaydi. Aftidan, bu erda faqat mashg'ulot samarasini tanlangan sport turiga to'g'ridan - to'g'ri «foydali o'tkazadigan» umumiylar tayyorgarlik mashqlarining ayrim parametrlarigina ortishi lozim bo'lsa kerak.

Mashg'ulot intensivligining o'sib borishi va hajmining kamayishi natijasida, ikkinchi bosqichda Yuklamalar dinamikasi-ning o'rta «to'lqin»lari odatda 3 - 4 haftagacha qisqaradi. «YUkla-ma tashlash» farqlari ham qisqaradi. Bunga mashq bilan chiniqqanlik o'sa borgani sari, bir tomonidan, Yuklamalar hajmi kamayishi sabab bo'lsa, ikkinchi tomonidan, tiklanish jarayonlari-ning tiklanishi tezroq o'tishi sabab bo'ladi.

Mikrosikllarda Yuklamalar dinamikasi umumiylar tendensiyaga va mikrosikllarning butun strukturasidagi o'zgarishlarga muvofiq almashinadi. Struktura esa, o'tkazilajak musobaqalarining eng muhimlariga yaqinlashtira borish sharoitiga va ularda ishtirot etish sharoitiga muvofiq qayta tuziladi va Shu yo'l bilan musobaqa mikrosikllariga o'xshay boradi.

MUNDARIJA

KIRISH	4
I-BOB ADAPTIV JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	5
1.1. Adaptiv jismoniy tarbiya va sportning nazariy-amaliy asoslari	5 5
1.2. Intelektual ijodiy saloxiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	14
1.3. Mashg‘ulot jarayonining mazmuni va struktursani.....	19
II-BOB. PARALIMPIYA SPORTIDA JISMONIY TARBIYA YO‘NALISHLARI. JISMONIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI”.....	23
2.1. Jismoniy tayyorgarlik	23
2.2. Jismoniy tarbiya turlari, vazifalari va vositalari	24
2.3. Umumiy maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT)	32
2.4.Umumiy va maxsus tayyorgarlikning o‘zaro nisbati	36
III-BOB. SPORT VA TEXNIK TAYYORGARLIK XUSUSIYATLARI	40
3.1. Texnik tayyorgarlik xususiyatlari.....	40
3.2. Sportchining texnik tayyorgarligi turlari, vazifalari, vositalari, usullari va bosqichlari	45
3.3. Ko‘p yillik va yillik o‘quv sikllarida texnik tayyorgarlikning bosqichlari va mazmuni	48
3.4. Taktik tayyorgarlik	52
3.4.1. Ko‘rsatilgan natijadan qat’iy nazar musobaqada	54
g‘alaba qozonish taktikasi	54
3.4.2. Yuqori ball to‘plagan musobaqalarda g‘alaba	55
qozonish taktikasi	55
3.4.3. Musobaqalarning navbatdagi bosqichiga	55
chiqish taktikasi	55
IV-BOB. PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK.....	59
4.1. Psixologik-pedagogik faoliyat.....	59
4.2. Maxsus psixologik trening	59
4.4. Funksional tayyorgarlik.....	64
V-BOB. ADAPTIV JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG‘ULOT JARAYONINING TUZILISHI.....	68

5.1. Mashg‘ulot mikrosiklini tuzilishi.....	68
5.1.1. Mikrosikllar yuklamalari dinamikasining va strukturasining xususiyatlari	72
5.2. Mashg‘ulot mezosikllarini tuzilishi.	74
5.2.1. Mashg‘ulot mezosikllarning tiplari.....	74
5.3. Makrosikllarda mashg‘ulotlar jarayonining tuzish metodikasi..	
76	
VI-BOB. PARA SPORT TURLARIDA MASHG‘ULOTI	
DAVRLARINING XUSUSIYATLARI	81
6.1. Sport formasi taraqqiyotining fazoliligi mashg‘ulotni davrlashning tabiiy asosi ekanligi	81
6.2. Tayyorlov davrining ikkinchi (maxsus tayyorgarlik) bosqichi ..	
90	
6.3. Musobaqa davrining strukturasi.....	91
6.4. O‘tish davri.....	91
6.5. Yuklamalar dinamikasining xususiyatlari.	93

Mirjamolov M.X., Bobomurodov N.Sh., Sobirova L.B.

ADAPTIV SPORTDA INTEGRAL TAYYORGARLIK

(Magistrlar uchun)

*Muharrir: S. Abdunabiyeva
Badiiy muharrir: K. Boyho'jayev
Sahifalovchi: A. Muhammadiyev*

Nashr. lits № 0038.

Bosishga ruxsat etildi 12.12.2023.

Bichimi 60x84 1/₁₆. Ofset qog'ozи. "Times New Roman"
garniturasи. Hisob-nashr tabog'i. 6,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 52.

«MAKON SAVDO PRINT» bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qoraqamish 4 mavze, 56.

19540066m

ISBN 978-9910-776-32-9



9 789910 766329